

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

# **Tayyorlov guruhlarida nutqni rivojlantirish ta'limiy faoliyatini tashkil etish**

Toshkent-2021

Ushbu metodik qo‘llanma 6-7 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda tarbiyachilar va ota-onalarga yordam berish maqsadida ishlab chiqildi.

Qo‘llanmada maktabga tayyorlov guruhi uchun bir yillik ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat ishlanmalari “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining 4-ilovasi “Yillik mavzuviy reja namunasi”ga asosida to‘liq yoritib berilgan.

**Mualliflar:**

MTTDMQTMOI professori  
F.R.Qodirova  
MTTDMQTMOI katta o‘qituvchisi  
M.A.Fayzullaeva

**Taqrizchilar:**

MTTDMQTMOI dotsenti PhD.  
S.S.Raximova  
Uchtepa tumani 388-maktabgacha  
ta'lim tashkiloti direktori  
Z.X. Ahmedova

, .

Metodik qo‘llanma Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2021 yil 20 dekabrda 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir.

Nutq rivojlantirish metodikasi pedagogik fan bo'lib, maktabgacha yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o'rganadi.

Nutq rivojlantirish metodikasi fanining asosiy vazifasi— nutq o'stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va tarbiyachilarni ular bilan ta'minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o'zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Nutq rivojlantirish metodikasining maqsadi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim - tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko'ra "Maktabgacha ta'lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta'limiy faoliyati dasturi asosida "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining 4-ilovasi "Yillik mavzuviy reja namunasi" asosida ta'limiy faoliyat ishlanmalari yoritib berildi.

Ta'limiy ishlanmalarga maqsad Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining "Nutq, muloqot, yiqish va yozish malakalari" sohasidagi bola kompetensiyalari, Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta'limiy faoliyati dasturi asosida olindi. Ishlanmalarning mazmuni qisqa, tavsiyaviy, jo'shqinlik xarakterga ega bo'lishi nazarda tutilib, 5 qismli tuzilmaga ega:

1. Mavzu.
2. Maqsad
3. Kerakli jihoz
4. Ta'limiy faoliyatning borishi
5. "Qo'shimcha qism"
6. "E'tiborga molik jihatlar"

1. Ta'limiy ishlanmaning mavzu qismini yoritilganda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi oylik, haftalik mavzulariga tayanildi. Misol uchun sentyabr oyida maktabga tayyorlov guruhda 1-hafta “Mening qadrdon O‘zbekistonim” deb nomlangan. Haftaning nomiga bog‘lanib nutq rivojlantirish ta'limiy faoliyati mavzusini “O‘zbekiston mening Vatanim”, 2-hafta “Mening shahrim, mening mahallam” deb nomlangan. Ta'limiy faoliyati mavzusini haftaning nomiga asoslanib “Mening ona shahrim” deb olindi.

2. Ta'limiy ishlanmaning maqsad qismining mazmunida Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalarining integratsiyasi, (rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishi) nazarda tutilib “Nutq, muloqot, yiqish va yozish malakalari” sohasidagi rivojlanish ko‘rsatkichlari, “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta'limiy faoliyati dasturi” ning “Nutq va til”, “O‘qish malakalari”, “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” bo‘limlari mazmunidagi vazifalarga integratsiyalashgan yondashuv tarzda olinishini inobatga olindi. Masalan, nutq rivojlantirish ishlanmasining maqsad qismiga “Nutq va til” kichik sohasi vazifalari: bog‘langan nutq, grammatika, lug‘at, tovush madaniyati, “Hissiyotlar va ularni boshqarish” kichik sohasining “Badiiy asarlar qahramonlari xissiyoti haqida gapirish” vazifasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda olinishi mumkin.

Ta'limiy faoliyat ishlanmalarining maqsadlari bolalarni mustaqil hikoya tuzish, rasmga qarab tarbiyachi bergan mazmun asosida hikoyalar tuzish va qayta hikoya qilish, tovushni to‘g‘ri talaffuz etish va savodxonlikka tayyorlashga qaratildi.

3. Ta'limiy ishlanmaning “Kerakli jihozlar” qismida ta'limiy faoliyatni o‘tkazish uchun kerakli jihozlar yozildi. Pedagog ta'limiy faoliyatni o‘tkazish uchun kerakli jihozlarni bir kun avval tayyorlab qo‘yishi lozim.

4. Ta'limiy ishlanmaning “Ta'limiy faoliyatning borishi” qismini yoritishda ta'limiy faoliyatning jo‘shqinlik xarakteriga ega bo‘lishiga e‘tibor berib rejalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Faoliyatni boshlashdan avval bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish uchun davra suhbatlari, biror muzyorlar mashqi, kutilmagan quvnoq

daqiqa tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalar diqqati jalb qilinadi, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi, yangi bilim berish uchun mavzu bog'lanadi. Bunday usulda tashkil etilgan ta'limiy faoliyat bolalarda qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltiradi.

Ta'limiy faoliyatning asosiy qismida ko'rgazmali, tarqatma materiallardan foydalangan holda yangi bilim beriladi. Berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarqatma materiallar bilan amaliy mashqlar, oddiy topshiriqlar yoki ta'limiy o'yinlarni o'tkazish ta'limiy faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Ta'limiy faoliyatning qismlari orasida quvnoq daqiqalarning o'tkazilishi nazarda tutiladi

5. Ta'limiy faoliyatning yakuniy qismida ishlanmada berilgan bilimni mustahkamlash uchun ta'limiy o'yin, mustahkamlovchi savollar kiritilishi lozim. O'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlarni o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish kabi usullardan ham foydalanish mumkin.

Ta'limiy faoliyat ishlanmasida ko'rsatilgan "Qo'shimcha qism", "E'tiborga molik jihatlar" bandlariga pedagogga ta'limiy faoliyat jarayonida nimalarga e'tibor berishi haqida tavsiyalar beriladi.

## **Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq o‘stirish ta’limiy faoliyati uchun dastur**

### **Nutq va til.**

O‘z ona tilida erkin so‘zlashishga, bolani kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqat yuritishga, o‘z holati, his-tuyg‘ulari va maqsadlarini nutqi orqali ravon ifodalashga; o‘zini qiziqtirgan mavzular bo‘yicha tortinmay savollar berishga o‘rgatishda davom etish. Suhbatdoshining nutqini tinglash va aytmoqchi bo‘layotgan fikrini anglash, his-tuyg‘ularini hurmat qilish madaniyatini shakllantirish.

### **Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish.**

Ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish malakasini mustahkamlash. Fonetik idrokni o‘stirishda davom etish. Bolaga *s-z, p-f, t-d, p-b, l-r, u-o‘, x-h, k-g* tovush guruhlarini to‘g‘ri talaffuz etish va ularni farqlashni, ovoz sifatlarini (*baland, o‘rtacha, past, yo‘g‘on, ingichka, juda ingichka*), nutq sur‘atini (*tez, o‘rtacha, sekin*) tarbiyalash, so‘zda tovush o‘rnini belgilashga o‘rgatishda davom etish.

### **Lug‘at ishi**

Bolalarning atrof-olam hodisalari haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida ularning “Mening qadrdon O‘zbekistonim”, “Mening shahrim – mening mahallam”, “Men va mening oilam”, “Men va mening do‘stlarim”, “Qushlar.”, “Oltin kuz”, “Sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar”, “O‘zbekistonning oq oltini”, “Havo, suv va yer usti transporti”, “Qish. Konstitutsiya kuni”, “Mavsumiy kiyim-bosh va poyafzal”, “Vatan himoyachilari kuni”, “Men va mening badanim”, “O‘zbekistonning buyuk arboblari”, “Bahor”, “Koinot”, “Mening uyim”, “Mebel”, “Idishlar. Milliy naqshlar”, “Maishiy asboblari”, “Yil fasllari”, “Milliy hunarmandchilik”, “Kun qismlari” mavzularida nutqini boyitish va faolligini oshirishda davom etish. Bolalar lug‘atini Vatan, Vatanimiz ramzlari: bayroq, gerb, madhiya, Vatan himoyachilari, shahar, qishloq, mahalla va ko‘chalar, yodgorliklar, maydonlar, bayramlar yangi haqidagi so‘zlar bilan kengaytirish; kasb-hunarga oid (muhandis, uchuvchi, musavvir, shifokor, misgar, ganchkor, o‘ymakor, naqqosh, paxtakor), qurilish va qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan mashinalar, transport va aloqa vositalari, kompyuter haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalarning lug‘atini ularning tevarak-atrofdagi voqyelik bilan bevosita tanishtirish asosida, bilish faoliyatlari jarayonida: tabiatni kuzatish, yil fasllari, (bahor, yoz, kuz, qish) va ularni tasvirlab berish, oy nomlari va hafta kunlarini nomini bilish, buyumlarni ko‘zdan kechirish, suratlarni tomosho qilish asosida olib boriladigan qiziqarli suhbatlar va sayohatlar vaqtida boyitib borish. Yangi o‘zlashtirgan so‘zlardagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etilishiga e‘tibor berish.

Narsalarning nomlarini to‘g‘ri aytish, bir-biriga o‘xshash va o‘xshamaydigan narsalarni bilan solishtirib, ulardagi o‘xshash va o‘ziga xos xususiyatlarini topishga, buyumlarning sifati, rangi (yorqin, ochiq, odmi, pishiq, puxta va shu

kabilar) mustahkamlash. Bolalar nutqiga o‘z mehnatiga nisbatan munosabatini ifodalovchi so‘zlarni(saranjom-sarishta, ehtiyotkor, tartibli) kiritish.

Xalq maqollari, matallari va topishmoklarini tushuntirishni davom ettirish (“Qushni asragan, odamni asragan bilan barobar”, “Yaxshidan rahmat, yomondan la'nat”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, “Kuch-birlikda”, “Bulbul chamanni, odam Vatanni sevar”, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” va boshqalar).

Bolalarga nutqlarida umumlashtiruvchi so‘zlar, zid *ma'noli so‘zlar: (uzun-qiska, kecha-kunduz, kuchli-kuchsiz, past-baland)*, ma'nosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil bo‘lgan so‘zlarni (*xursand, shod, quvnoq; bahor, ko‘klam; ko‘rkam, chiroyli, go‘zal*), aytilishi bir xil, ammo ma'nolari xilma-xil bo‘lgan so‘zlarni (*o‘t-maysa, o‘t-ariqdan o‘tish, o‘t-olov v.b.*) tushunib, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish.

### **Lug‘atni faollashtirish.**

Bolalarning yangi so‘zlardan foydalanish va ma'nosini bilishga bo‘lgan istaklarini rag‘batlantirish. Bolalarga buyumlarning nomlarini to‘g‘ri aytish, bir-biri bilan qiyoslashga, farqlarini aniqlashga o‘rgatish orqali lug‘at boyligini oshirishda davom etish. Masalan, buyumlarning xossalari va holatini ifodalovchi sifatlovchi so‘zlar (shisha guldon, yupqa-tiniq, mo‘rt, tez sinadi) nimadan qilinganligi, shakli, rangi, sifati, o‘lchovi va vazifalarini anglatuvchi so‘zlarni o‘rgatishda davom etish.

Buyumlarning qaysi nimadan yasalganini bildiruvchi so‘zlar (chinni loy, metall, plastmassa)ni o‘zlashtirib borishlariga ahamiyat berish. Bolalarda ona tiliga nisbatan muhabbat, to‘g‘ri gapirishga o‘rganish istagini tarbiyalash va mustahkamlash.

### **Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish**

Bolalarda grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni tarbiyalashda davom etish. Bolalarga o‘z nutqi va boshqalar nutqidagi kamchiliklarni payqash va ularni bartaraf etishga intilish va chiroyli gapirish ishtiyoqini tarbiyalashda davom etish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Bolalarga to‘g‘ri grammatik shakllarni mashq qildirishda ko‘proq og‘zaki o‘yinlardan foydalanish ( “Aksini top?” , “Archa qanday?” “Eslab qoling va aytib bering” va boshqalar) maqsadga muvofiq.

Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish. Otlarni birlik va ko‘plikda qo‘llash, so‘zlar ma'nosini tushunish. Jonivorlar, narsalar, idish-tovoqlar, turli kasblar nomini tushunib, aniq aytishga o‘rgatish.

Nutqda kelishik qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanishga amaliy o‘rgatish

### **Bog‘lanishli nutqni shakllantirish.**

Bolalar bilan og‘zaki nutqning ikki shakli - so‘zlashuv va hikoya qilib berish nutqini o‘stirishni davom ettirish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to‘liq javob berish, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e’tibor bilan tinglash malakasini takomillashtirish.

Badiiy asarni, xususan ertaklarni qayta hikoya qilishga o'rgatayotganda bolalar diqqatini:ertakning boshlanishi, takrorlanishi, xulosa qismiga, voqyealarning izchil bayoniga, hikoyalarni so'zlab berilayotganda ikki qahramonning o'zaro nutqiga qaratish.

Bolalar asar voqyealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo'llay bilishlariga erishish.

Bolalarga o'yinchoqlar va buyum, fasllar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni ta'riflab berishga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarini (rangi, shakli, vazifasi) aniq so'zlar orqali ifodalashga, rasmga qarab mustaqil tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish.

Bolalarga yil fasllari haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda har bir faslning o'ziga xos tarovati, bolalarning o'yinlari haqida voqyealarni izchil bayon qilishlariga, hikoya tugal ma'noga ega bo'lishiga e'tibor qaratish.

### **Ijodiy hikoya qilish.**

Bolalarni tarbiyachi tomonidan aytilgan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, jummalarni qisqa, lo'nda tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatishda davom etish.

Bolalarni shaxsiy tajribalari asosida, tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo'yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish loyoqatlarini rivojlantirish: "Kuz", "Mehmonda", "Do'konda", "Hayvonot bog'ida", "Qish", "Qishda qushlarning hayoti", "Avtobusda", "Bahor", "Daraxt gulladi", "Qushlar qaytib keldi", "Yoz", "Hovuzda cho'mildik" va boshqalar.

Bolalarga qahramonlarning kechinmalarini, his-hayajonlarini ta'sirchan bera bilishga o'rgatish. "Birinchi qor", "Qish bayrami", "Eng go'zal fasl", "Men onamga yordamchi", "Men otamga yordamchi", "Onamlarning bayrami", "Men Navro'z bayramini qanday o'tkazdim?" kabilar.

Bolalarga mavzuli rasmlarda aks ettirilgan voqyealarni izchil bayon qilishni, rasmdagi qahramonlar xatti-harakatlariga nisbatan o'z fikrini, munosabatini bildirish, rasmga qarab mustaqil tasviriy hikoya tuzish va hikoyani mantiqli tugallashni, bir necha voqyealar tasvirlangan rasmlar to'plamining mazmunidan kelib chiqib ularni to'g'ri joylashtirish va mantiqan bog'langan hikoya tuzishga, o'rgatish. Bolalarni taqqoslash usulidan foydalanib topishmoqlar o'ylab topishga, tez aytishlarni ravon va aniq talaffuz bilan aytishga o'rgatish.

### **O'qish malakalari.**

Bolalarga ko'p vaqt davomida kitob bilan o'tirib, uni tomosha qilish, kitobni to'g'ri holatda ushlashga o'rgatishda davom etish. Ayrim ma'lumotlarni yig'ish uchun kitoblardan foydalanish, bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berish, eslab qolgan ertak, hikoyalarni mazmunini so'zlab berish, adabiy asarlarning ayrim parchalarini so'zlab berish, bolalar adabiyoti janri nomini bilish (ertak, she'r, hikoya), mashhur yozuvchi va shoirlar nomini bilishga o'rgatishda davom etish.



Kitob, kutubxona va kutubxona xodimi haqida tushuncha berish. Bolada kitobdagi rasmlar asosida boshqa bolalarga tushunganlarini soʻzlab berishlarini ragʻbatlantirish. Boladan tinglagan kitobining nomi va muallifini aytib berishni soʻrash. Yoshiga mos va (yoki) mustaqil yodlagan sheʼrini yoddan ifodali aytib berishga oʻrgatish.

sodda gaplarni nutqida qoʻllash, soʻz, tovush, harf, boʻgʻin, gap haqida amaliy tushuncha berish, soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlish, boʻgʻinli kartochkalar yordamida boʻgʻinlardan soʻzlar tuzish.

Bolaning mavjud til tizimi (*tovush, soʻz, gap*) toʻgʻrisidagi tasavvurlarini kengaytirish. Tovushga xos xususiyatlarni (*tovushlarni talaffuz qilish, yaʼni aytish va eshitish*) tushuntirish. Bir boʻgʻinli soʻzlardan va boʻgʻindan tovushni ajratib olish, boʻgʻinlarning tovushlardan tuzilganligi, nutqning eng kichik boʻlagi tovush ekani, uning xususiyatlari, turi, tovushlarning harflar bilan belgilanishi haqida tushuncha berish. Tovushlarning toʻgʻri talaffuzi ustida ishlash.

Bolaning unli va undosh tovushlar haqidagi amaliy tushunchasini mustahkamlash. Unli va undosh tovushlarning talaffuzini mashq qildirish.

### **Qoʻl barmoqlari mayda motorikasi.**

Katakli qogʻoz sathida toʻgʻri chiziqlarni yozish, qoʻlni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizish, daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay olish, rasmlarni toʻgʻri joylashtirish, qoʻlni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizish, katakli qogʻoz sathida bosma harfni chizishga oʻrgatish.

### **6 dan 7 yoshgacha boʻlgan guruhlarda oʻtkaziladigan mashgʻulotlarning taxminiy miqdori**

t/r	Mashgʻulot nomi	Oʻquv yili mobaynida		
		Hafta mobaynida	Oy mobaynida	Oʻquv yili mobaynida
1.	Nutqni rivojlantirish	1	4	36
2.	Savodxonlikka oʻrgatish	1	4	36
	Jami:	2	8	72

### **Нутқни ривожлантириш бўйича ой ва ҳафта мавзулари**

Oylar	Oy mavzusi	Hafta mavzulari	Hafta mavzulari Maktabga tayyorlov guruh
-------	------------	-----------------	--

Sentyabr	O‘zbekiston – mening Vatanim	1-hafta Mening qadrdon O‘zbekistonim	Mavzu: Mening Vatanim mavzusida suhbat
		2-hafta Mening shahrim – mening mahallam	Mavzu: Mening ona shahrim mavzusida suhbat
		3-hafta Men va mening oilam	Mavzu: Mening oilam mavzusida suhbat
		4-hafta Men va mening do‘stlarim	Mavzu: Men va mening do‘stlarim mavzusida suhbat
Oktyabr	Kuz bo‘yoqlari	1-hafta Mavsumiy o‘zgarishlar. Ko‘chmanchi qushlar	Mavzu: Shodmon Otabek. “Qushcha” hikoyasini o‘qib berish va mavzu asosida suhbatlashish.
		2-hafta Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Mavzu: Oltin kuz-ne'matlari surati ustida suhbat
		3-hafta Non hammasiga sarkor	Mavzu: Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) “Non” hikoyasini hikoya kilib berish
		4-hafta O‘zbekistonning oq oltini	Mavzu: “Paxta – milliy boyligimiz” surati ustida suhbat
Noyabr	Transport, ko‘cha harakati qoidalari (KHQ) Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)	1-hafta Havo, suv va yer usti transporti	Mavzu:Havo transporti haqida suhbat
		2-hafta Ehtiyotkor piyoda haftasi	Mavzu: Yo‘l harakati qoidalari bilan tanishtirish
		3-hafta Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Mavzu:“Tez yordam xizmati”nomli surat ustida suhbat
		4-hafta Bizning yaxshi ishlarimiz	Mavzu:“Otam, onamga yordamchiman” nomli surat ustida suhbat

Dekabr	Qish	1-hafta Qish. Konstitutsiya kuni	Mavzu: «8-dekabr Konstitutsiya kuni» mavzusida suhbat
		2-hafta Sogʻlom tanda – sogʻlom ruh	Mavzu: Gripp haqida nimalarni bilasiz? mavzusida suhbat
		3-hafta Mavsumiy kiyim-bosh va poyafzal	Mavzu: Tikuvchi mehnati bilan tanishtirish
		4-hafta Yangi yil nima?	Mavzu: “Bogʻchamizda qish bayrami” nomli surat ustida suhbat
Yanvar	Bolalar bogʻchasi	1-hafta Qishki oʻyin-kulgilar	Mavzu: “Qishki oʻyinlar” nomli surat ustida suhbat
		2-hafta Vatan himoyachilari kuni	Mavzu: “14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni” nomli surat ustida suhbat
		3-hafta Men va mening badanim	Mavzu: “Qoʻlimiz va tishimizni yuvamiz”
		4-hafta Xushmuomalalik alifbosi	Mavzu: «Kechiring, oyijon!» hikoyasi
Fevral	Gʻaroyib dunyo	1-hafta Qoʻshni mamlakatlar	Mavzu: «Doʻstlik ulugʻ baxt» qirgʻiz xalq ertagini qayta hikoya qilish
		2-hafta Dunyo mamlakatlari	Mavzu: «Rostgoʻy bola» koreys xalq ertagini qayta hikoya qilish
		3-hafta Oʻzbekistonning buyuk arboblari	Mavzu: Alisher Navoiy «Non hidi» rivoyatini qayta hikoya qilish
		4-hafta Kitob tarixi va inson	Mavzu: “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini soʻzlab berish
Mart	Goʻzal bahor	1-hafta Onamning kuni	Mavzu: “Onamlarning bayrami” suhbat
		2-hafta Mavsumiy oʻzgarishlar	Mavzu: “Sumalak-koʻklam moʻjizasi” rivoyatini soʻzlab berish

		3-hafta Xalq manbalari Navro‘z bayrami	Mavzu: Ijodiy hikoya tuzish. “Navro‘z bayramini qanday o‘tkazdim?”
		4-hafta Hasharotlar	Mavzu: “Qumursqa” o‘zbek xalq ertagini o‘qib berish
Aprel	Yer sayyorasi umumiy uyimiz	1-hafta Gullab-yashnayotgan bahor	Mavzu: Gullab-yashnayotgan bahor
		2-hafta Koinot sirlari	Mavzu: “Bu mening yulduzim” rivoyatini o‘qib berish
		3-hafta yer sayyorasi kuni	Mavzu: “Suv hammaga kerak” mavzusida suhbat
		4-hafta Sayyorani saqla!	Mavzu: Ibrohim Rahimning “Ona yer” hikoyasini o‘qib berish
May	Asboblar va anjomlar	1-hafta Men va mening uyim Xotira kuni	Mavzu: "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" suhbat
		2-hafta Mebel. Milliy hunarmandchilik	Mavzu: O‘zbek milliy kulolchilik san'ati bilan tanishtirish
		3-hafta Milliy naqshlar	Mavzu: “Kashtachilik” kasbi haqida suhbat
		4-hafta Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblar	Mavzu: T.Ilhomovning “Adib-betartib” hikoyasini o‘qib berish.

**Oy: Sentyabr.**  
**Mavzu: O‘zbekiston – mening Vatanim**  
**1-hafta. Mavzu: Mening qadrdon O‘zbekistonim**

**Til va nutq markazi**

**Mavzu: O‘zbekiston mening Vatanim**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? Kabi savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni surat bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish. «Mustaqillik bayrami», «Mustaqillik maydoni» mavzularida lug‘atni faollashtirish. Bolalar surat asosida voqyealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon) turini qo‘llay bilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

**"Men" konsepsiyasi:**

Vatan haqida suhbat davomida bolalarning o‘zining millati, tilini bilishlarini rag‘batlantirish.

**Intellektual-bilish malakalari:**

O‘z mamlakati va uning ramzlari: gerb, bayroq va madhiyasi, O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili ekanligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

**Kerakli jihoz va materiallar:** «Mustaqillik bayrami» surati, AKT, diskda slaydlar

**Faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? kabi savollar bilan murojaat qiladi. Bolalar javoblaridan so‘ng ularning javoblarini umumlashtiradi: Biz tug‘ilib o‘sgan joy-bu Vatan. Shuning uchun “Ona Vatan” deymiz. Vatan-muqaddas. Chunki unda bizning buva-buvilarimiz yashab o‘tishgan. Biz ham ota-onalarimiz bilan unda yashayapmiz. Shuning uchun uni sevamiz. Biz Vatanda baxtiyor yashayapmiz. Yaqinda “Mustaqillik” bayramini nishonladik. Bugun men sizga “Mustaqillik bayrami” mavzusida surat ko‘rsataman. Diqqat bilan suratni ko‘rib chiqish.

**Asosiy qism:**

1. “Mustaqillik bayrami” mavzusi bo‘yicha suratni ko‘rib chiqish.
2. Surat bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
3. Surat bo‘yicha bolalar hikoyalarini tinglash.
4. Jismoniy daqiqa
5. Bolalar tuzgan hikoyalarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha:** “Mustaqillik bayrami” mavzusida vidiorolik ko‘rsatish.

**E'tiborga molik jihati:** bolalar lug'atiga kirgan yangi so'zlarni o'zlashtirish. Bog'lanishli nutq—hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

**Oy:**Sentyabr.

**Mavzu:**O'zbekiston – mening Vatanim

**2-xafta. Mavzu: Mening shahrim, mening mahallam**

**Til va nutq markazi**

**Mavzu: “Mening ona shahrim” mavzusida suhbat**

**Mavzu: “Mening ona shahrim” mavzusida surat asosida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

bolalarga tug'ilib o'sgan joylari, ona shaharlari haqida savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish. «**Mening ona shahrim**» mavzusida lug'atni faollashtirish. Bolalarda gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

**Lug'at ishi**

Bolalarga nutqlarida ma'nosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil bo'lgan so'zlarni (*ko'rkam, chiroyli, go'zal*) tushunib, o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

**Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish**

Bolalarda gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Tengdoshlari bilan o'zoro hurmat munosabat bildirishni tarbiyalash

**Kerakli jihoz va materiallar:** «**Mening ona shahrim**» surati, AKT, diskda slaydlar

**Faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga o'z shaharlarining nomi, shahardagi o'zgarishlar haqida savollar bilan murojaat qiladi. Bugun men sizga “Mening ona shahrim” mavzusida surat ko'rsataman. Diqqat bilan suratni ko'rib chiqing.

**Asosiy qism:**

1.“Mening ona shahrim” mavzusi bo'yicha suratni ko'rib chiqish.

2.Surat bo'yicha savol-javob o'tkazish.

3.Surat bo'yicha bolalar hikoyalarini tinglash.

4.Jismoniy daqiqa

5.“Mening ona shahrim” mavzusida she'rlar aytish

6.Bolalar tuzgan hikoyalar, aytilgan she'rlarni muhokama qilish va rag'batlantirish

Qo'shimcha qism: "Bizning shahar" mavzusida vidiorolik ko'rsatish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalar soʻzlayotganlarida soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish koʻnikmalari shakllanganligiga

**Oy: Sentyabr.**

**Mavzu: Oʻzbekiston – mening Vatanim**

**3-xafta. Mavzu: Men va mening oilam**

**Mavzu: “Mening oilam” mavzusida suhbat**

**Mavzu: “Mening oilam” mavzusida surat asosida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:** bolalarga oʻzbek oilalarda oila aʼzolari munosabatlari ibratli ekani haqida savollar berish bilan **muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.** Surat boʻyicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, bolalarning hikoya qilib berish nutqini rivojlantirishda davom etish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu boʻyicha berilgan savollarga tushunib, gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, maʼnoli jumlar tuzish, oʻrtoqlarining berayotgan javoblarini eʼtibor bilan tinglashga oʻrgatish.

“Mening oilam” mavzusida lugʻatni faollashtirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot:**

Oʻz oila aʼzolariga samimiy munosabat bildirishni tarbiyalash. **Kerakli**

**jixozlar:**

“Mening oilam” mavzusida rasmlar toʻplami.

**Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik:** tarbiyachi taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatdan oldin ota-onalardan “Mening oilam” mavzusida rasmlarni yigʻadi. Rasmlarning orqasiga lipuchkalar yopishtiriladi, xuddi shunday lipuchkalar katta vatman qogʻozga ham yopishtiriladi.

**Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi taʼlimiy faoliyatning **kirish qismida** (5 daqiqa) bolalarga hamma bolalarni oʻz oilalari, oʻz uylari borligi, oila deganda avvalo ota-onalari koʻz oʻngilarida kelishi, undan keyin opa-ukalari, opa-singillari kelishi, oʻzbek oilalarda

oila a'zolari munosabatlari ibratli ekani haqida soʻzlab suhbatni boshlaydi va bolalarni muloqatga kirishishlariga imkoniyat beriladi.

### **Asosiy qism. 15 daqiqa**

1. "Mening oilam" mavzusi boʻyicha suratni koʻrib chiqish.
2. Surat boʻyicha savol-javob oʻtkazish.
3. Har bir bolaning oilaviy tushgan rasmlari boʻyicha hikoyalarini tinglash.
4. Quvnoq daqiqa.
5. "Mening oilam" mavzusida she'rlar aytish.

**6. Yakuniy qism. 5 daqiqa.** Bolalar tuzgan hikoyalar, aytilgan she'rlarni muhokama qilish va ragʻbatlantirish.

**Qoʻshimcha qism:** "Bizning oila" mavzusida vidiorolik koʻrsatish. **5 daqiqa**

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalar soʻzlayotganlarida soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish koʻnikmalari shakllanganligiga e'tibor berish.

**Oy: Sentyabr.**

**Mavzu: Oʻzbekiston – mening Vatanim**

**4-xafta. Mavzu: Men va mening doʻstlarim**

**Mavzu: Men va mening doʻstlarim mavzusida suhbat**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

bolalarga oʻrtoqlari bilan qanday munosabatda boʻlish, oʻrtoq boʻlish odobiga doir savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni doʻstlik haqidagi surat boʻyicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat boʻyicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga oʻrgatish. «Doʻstlar» mavzusida lugʻatni faollashtirish. Bogʻlanishli nutq—hikoya tuzish koʻnikmalarini shakllantirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

**Lugʻat ishi**

Bolalarga nutqlarida ma'nosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil boʻlgan soʻzlarni (*koʻrkam, chiroyli, goʻzal*) tushunib, oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashga oʻrgatish.

**Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish**

Bolalarda gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan oʻzaro samimiy, doʻstona muloqotga kirishish, bir-birini hikoyasini diqqat bilan, qiziqish bilan tinglash, oʻrtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda boʻlishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**



“Men va mening do‘stlarim” mavzusida bolalarning rasmlari

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik:** tarbiyachi ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatdan oldin “Men va mening do‘stlarim” mavzusida rasmlarni yig‘adi. Rasmlar guruhda bolalarning o‘rtoqlari bilan o‘ynashlari, birgalikdagi mehnat faoliyatlaridan rasmlar, ota-onalardan bolalarning mahalla bolalari bilan o‘ynashlari aks ettirilgan rasmlarni yig‘adi. Rasmlarning orqasiga lipuchkalar yopishtiriladi, xuddi shunday lipuchkalar katta vatman qog‘ozga ham yopishtiriladi.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga hamma bolalarni o‘rtoqlari borligi, bolalar o‘rtoqlari bilan ahil o‘ynashlari, mehnat faoliyatida o‘rtoqlariga doimo yordam berishlari, o‘rtoqlarining yutuqlaridan quvonishlari, o‘rtoqlariga o‘z yordamini taklif qilishlari, ular bilan doimo o‘zaro fikrlashishlari, bayram va tadbirlarda o‘rtoqlarini tabriklashlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Men va mening do‘stlarim” mavzusi bo‘yicha suratni ko‘rib chiqish.
2. Surat bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
3. Har bir bolaning o‘rtoqlari bilan tushgan rasmlari bo‘yicha hikoyalarini tinglash.
4. Jismoniy daqiqa
5. “Do‘stlik” mavzusida she‘rlar aytish
6. Bolalar tuzgan hikoyalar, aytilgan she‘rlarni muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** "Do‘stlar" mavzusida vidiorolik ko‘rsatish.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** Bolalar so‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalari shakllanganligiga

**Oy: Oktyabr**

**Mavzu: Kuz bo‘yoqlari**

**1-hafta. Mavzu: Mavsumiy o‘zgarishlar**

**Ko‘chmanchi qushlar**

**Mavzu: Shodmon Otabek. “Qushcha” hikoyasini o‘qib berish va mavzu asosida suhbatlashish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarni hikoyani diqqat bilan tinglash, ma‘nosiga tushunish, qahramonlar xatti-harakatlarini kuzatish, asar voqyealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilish, turli janrdagi badiiy asarlarni hikoya qilishga o‘rgatish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma‘noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish. “Qushlar” mavzularida nutqini boyitish va faolligini oshirish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to‘liq javob berish, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e‘tibor bilan tinglash malakasini takomillashtirish.

## **Intellektual-bilish malakalari**

Qishlab qoluvchi, ko‘chmanchi qushlarni ajratish, qushlarni nomini to‘g‘ri aytish, qushlarga qiziqishlarini rag‘batlantirish.

## **Dunyoni badiiy tasavvur etish**

Eshitgan hikoya mazmunini so‘zlab berish, hikoya mazmuniga nisbatan o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bolada kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarini kuchaytirish.

## **Kerakli jixozlar:**

“Ko‘chmanchi qushlar” mavzusida rasmlar

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga qushlarning tabiatdagi ahamiyati, ularsiz hashoratlar dala va bog‘larda yetishtiriladigan o‘simliklarga juda katta zarar keltirishi, o‘lkamizdagi ba’zi qushlar kuz kelishi bilan issiq o‘lkalarga uchib ketishi, bahorda yana qaytib kelishi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

## **Asosiy qism:**

1. “Ko‘chmanchi qushlar” mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Shodmon Otabek. “Qushcha” hikoyasini o‘qib berish
2. Hikoya bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
3. Ixtiyoriy ravishda bolalarning hikoyalarini tinglash.
4. Jismoniy daqiqa
5. “Qushlar” mavzusida she‘rlar aytish
6. Bolalarning aytgan hikoyalari, aytilgan she‘rlarni muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** "Qushlar" mavzusida vidiorolik ko‘rsatish.

**Alohida e’tibor qaratiladi:** Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to‘liq javob berish, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e’tibor bilan tinglashlariga e’tibor qaratish.

## **Oy: Oktyabr**

### **Mavzu: Kuz bo‘yoqlari**

**2-hafta. Mavzu: Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar**

**Mavzu: Oltin kuz surati ustida suhbat**

## **Maqsad:**

### **“Nutq va til”:**

bolalarga kuz faslida tabiatdagi o‘zgarishlar, kuzda ob-havo turlicha bo‘lishi, kuz faslidagi voqyea-hodisalarning muhim belgilarini ajratishga, solishtirishga va umumlashtirishga ularni ifodalash uchun aniq so‘zlarni tanlashga, she‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni topishga o‘rgatish. «Kuz» mavzusida lug‘atni faollashtirish. Rasm asosida tasviriy hikoyani mustaqil tuzishga o‘rgatish.

Bolalarni “Kuz” mavzusida tasviriy hikoya aytishga o‘rgatishga ham, voqyealarni izchil bayon qilishga, hikoyani mantiqli tugallashga; gapni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish.

## **Intellectual-bilish malakalari**

Bolalarning kuz faslida tabiatdagi o'zgarishlar, kuzda ob-havo turlicha bo'lishi, bog' va poliz ekinlari haqidagi tushunchalari, qushlar hayotiga qiziqishlarini rag'batlantirish.

### **Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-birini hikoyasini diqqat bilan, qiziqish bilan tinglash, o'rtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

### **Kerakli jixozlar:**

“Oltin kuz” mavzusida rasmlar

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida kuz faslida tabiatdagi o'zgarishlar, kuzda ob-havo turlicha bo'lishi, ba'zan kuz faslida quyosh nur sochib, osmon musaffo va tiniq bo'lishi, ba'zan osmon bulutlar bilan qoplanishi, sovuq shamol esishi, tez-tez yomg'ir yog'ishi, kuzda daraxtlarda barglar qizg'ish-sariq tusga kirishi, yerga to'kilishi, qaldirg'och, ko'k qarg'a, turna kabi qushlar uchib ketishi, bog'larda kuzgi mevalar pishib yetilishi, paxtazorlarda paxtalar oppoq bo'lib ochilishi, dala va bog'larda ish qizg'in bo'lishi, kuzgi meva, poliz ekinlari yig'ib olinishi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

### **Asosiy qism:**

- 1.“Oltin kuz” mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. Tursunboy Adashboev. “Kuz” she'rini o'qib berish
- 2.She'r mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.
- 3.She'rdagi qofiyadosh so'zlarni topish(siniqdi-tiniqdi; baldoq-zarg'aldoq).
- 4.Jismoniy daqiqa
- 5.“Kuz” mavzusida she'rlar aytish
- 6.Bolalarning kuz faslidagi o'zgarishlar xaqiddagi hikoyalari, she'r mazmunini muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** “Sabzavotni yig'” pazl o'yini

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarni kuz faslidagi voqyea-hodisalarning muhim belgilarini ajratishga, solishtirishga va umumlashtirishga, ularni ifodalash uchun aniq so'zlarni tanlashga, she'rdagi qofiyadosh so'zlarni topishlariga e'tibor berish.

## **Oy:Oktyabr**

### **Mavzu:Kuz bo'yoqlari**

#### **3-hafta. Mavzu: Non hammasiga sarkor**

**Mavzu: Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) “Non” hikoya kilib berish**

### **Maqsad:**

### **“Nutq va til”:**

Bolalarni hikoyani diqqat bilan tinglash, ma'nosiga tushunish, qahramonlar xatti-harakatlarini kuzatish, asar voqyealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo'llay

bilish, turli janrdagi badiiy asarlarni hikoya qilishga o'rgatish. Bolalarda gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish. "Non turlari" mavzusida nutqini boyitish va faolligini oshirish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to'liq javob berish, o'rtoqlarining berayotgan javoblarini e'tibor bilan tinglash malakasini takomillashtirish.

### **Intellectual-bilish malakalari**

Bolalarga bug'doydan non yetishtirilishi, nonni bizning dasturxonimizga kelishi uchun turli kasbdagi kishilar mehnati sarf qilinishi haqida berish hamda ularni nonni tayyorlash jarayonlariga qiziqishlarini rag'batlantirish.

### **Dunyoni badiiy tasavvur etish**

Eshitgan hikoya mazmunini so'zlab berish, hikoya mazmuniga nisbatan o'z munosabatini bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bolada kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarini kuchaytirish.

### **Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Bolalarni nonni qadrlashga, uvol qilmaslikka odatlantirish.

### **Kerakli jixozlar:**

"Non turlari" mavzusida rasmlar

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga non dasturxonimizga qo'yilguncha qanchadan-qancha odamlar mehnat qilishlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

### **Asosiy qism:**

1. "Non turlari" mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. "Non" hikoyasini so'zlab berish
2. Hikoya bo'yicha savol-javob o'tkazish.
3. Ixtiyoriy ravishda bolalarning hikoyalarini tinglash.
4. Jismoniy daqiqa
5. "Non" mavzusida she'rlar aytish

6. Bolalarning aytgan hikoyalari, aytilgan she'rlarni muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** "Non bizning dasturxonimizga qanday kelib qoldi?" mavzusida slayd taqdimot ko'rsatish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo'llay bilishga e'tibor qaratish.

**Oy: Oktyabr**

**Mavzu: Kuz bo'yoqlari**

**4-hafta. O'zbekistonning oq oltini**

**Mavzu: "Paxta – milliy boyligimiz" surati ustida suhbat**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

bolalarga paxta–o'zbek xalqining faxri, milliy boyligi hisoblanishi, paxtakorlarning mehnatlari, paxtadan olinadigan mahsulotlar mavzusiga doir savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarni paxtazor tasviridagi surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish. «Paxtazor» mavzusida lug'atni faollashtirish. Bog'lanishli nutq—hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarga paxtakorlarning mehnati: yerga ishlov berib, chigit ekishi, hosilni yig'ib-terib olguncha g'o'zani asrab-avaylab o'stirishi, vaqtida sug'orib, ishlov berish bilan birga, bu ishlarda ob-havo injiqliklarini yengishi kerakligi haqida tushuncha berish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-birini hikoyasini diqqat bilan, qiziqish bilan tinglash, o'rtoqlariga nisbatan mehri munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

"Paxtazor" mavzusida rasm

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga paxta–o'zbek xalqining faxri, milliy boyligi hisoblanishi, paxtakorlarning mehnatlari, paxtadan olinadigan mahsulotlar haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. "Paxtazor" mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.
3. Jismoniy daqiqa
4. "Paxta" mavzusida she'rlar aytish
5. Bolalarning paxta, paxtakorlar xaqidagi suhbatni, she'rni muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** "Paxtazor" pazl o'yini

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarni surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzish, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e'tibor berish.

**Oy: Noyabr**

**Mavzu: Transport, ko'cha harakati qoidalari (KHQ)**

**Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)**

**1-hafta. Havo, suv va yer usti transporti**

**Mavzu: Havo transporti haqida suhbat**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

bolalarga havo transporti, uchuvchilar mehnati, havo transportidan foydalanish mavzusiga doir savollar berish bilan muloqotga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarni havo transporti tasvirlangan surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish. «Havo transporti» mavzusida lug'atni faollashtirish.

**Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarga havo transporti mamlakatni xorijdagi ko'pgina mamlakatlarning yirik shaharlari bilan birlashtirishi, havo transportidan yuk va yo'lovchi tashishda foydalanilishi, samalyotda uchuvchilar, stuardessalar yo'lovchilarga xizmat qilishi, uchuvchilarning vazifasi insonlarning uzog'ini yaqin qilib, samolyotda uchayotgan yo'lovchilarni xavf-xatarsiz manziliga yetkazishi, stuardessalar samalyotning ichki tartib-qoidalari va yangiliklar to'g'risida yo'lovchilarni xabardor qilishi haqida tushuncha berish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-birini hikoyasini diqqat bilan, qiziqish bilan tinglash, o'rtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

"Havo transporti" mavzusida rasm

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga havo transporti, uchuvchilar mehnati, havo transportidan foydalanish haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. "Havo transporti" mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.
3. Jismoniy daqiqa
4. "Havo transporti" mavzusida she'rlar aytish
5. Bolalarning havo transporti xaqidagi suhbatni, she'rnı muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** "Havo transporti" pazl o'yini.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarnı surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzish, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e'tibor berish.

**Oy: Noyabr**

**Mavzu: Transport, ko'cha harakati qoidalari (KHQ)**

**Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)**

**2-hafta. Ehtiyotkor piyoda haftasi**

**Mavzu: «Yo'l qoidalarini o'rganamiz»**

**Mavzu: Yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

bolalarga ko'cha harakati qoidalari, davlat avtomobil nazorati xodimi — militsioner vazifasi, transport va ko'chada yurish mavzusiga doir savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarnı ko'cha harakati tasvirlangan surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish. «Ko'cha harakati, transportlar» mavzusida lug'atni faollashtirish.

**Intellectual-bilish malakalari**

Bolalarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishni davom ettirish. Svetofor belgilari va ularga amal qilish haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-birini hikoyasini diqqat bilan, qiziqish bilan tinglash, o'rtoqlariga nisbatan mehrlı munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

"Ko'cha harakati" mavzusida rasm

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga ko'cha harakati qoidalari, davlat avtomobil nazorati xodimi vazifasi, transport va ko'chada yurish tartibi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. "Ko'cha harakati" mavzusi bo'yicha suratlarnı ko'rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.
3. Jismoniy daqiqa
4. "Transport, yo'l qoidalari" mavzusida she'rlar aytish
5. Bolalarning transport, yo'l qoidalari haqidagi suhbatni, she'rnı muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** "Ko'cha harakati" maketi bo'yicha o'yin.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarnı surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzish, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e'tibor berish.

## **Mavzu: Transport, ko'cha harakati qoidalari (KHQ)**

### **Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)**

#### **3-hafta. Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari**

### **Mavzu: "Tez yordam xizmati" nomli surat ustida suhbat**

#### **Maqsad:**

#### **"Nutq va til":**

bolalarga maxsus xizmat transport vositalari (tez yordam va o't o'chirish mashinalari), vazifalari mavzusiga doir savollar berish bilan muloqotga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarnı tez yordam xizmati tasvirlangan surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish. «Tez yordam xizmati» mavzusida lug'atni faollashtirish.

#### **Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarga tyez tibbiy yordam xizmatining asosiy vazifasi fuqaroning hayotiga xavf tug'diradigan holatlarda birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish ekani, tibbiy yordam barcha holatlarda – bemor O'zbekiston fuqarosimi yoki chet ellik mehmonmi, bundan qat'iy nazar bepul ko'rsatilishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida ham "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega", deya qat'iy belgilab qo'yilganligi haqidagi tushunchalarnı berish.

#### **Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam ko'rsatishga tayyor bo'lish, o'rtoqlariga nisbatan mehrlı munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

#### **Kerakli jixozlar:**

"Tez yordam xizmati" mavzusida rasm

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga tez yordam xizmati vazifasi, shifokorlar mehnati haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

#### **Asosiy qism:**

1. "Tez yordam xizmati" mavzusi bo'yicha suratlarnı ko'rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.



3. Jismoniy daqiqa

4. “Shifokorlar” mavzusida she’rlar aytish

5. Bolalarning tez yordam xizmati haqidagi suhbatni, she’rni muhokama qilish va rag’batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** “Tez yordam xizmati” o‘yini.

**Alohida e’tibor qaratiladi:** bolalarni suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e’tibor berish.

**Oy: Noyabr**

**Mavzu: Transport, ko‘cha harakati qoidalari (KHQ)**

**Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)**

**4-hafta. Bizning yaxshi ishlarimiz**

**Mavzu: “Otam, onamga yordamchiman” nomli surat ustida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

bolalarni ota-onalariga yordam berishlari, o‘zlari qilgan ishlarining boshqalarga foydasi borligi, bolalarni o‘zlarining mehnatlarining natijasini ko‘rganda qanchalik quvonishlari haqidagi suhbatga muloqotga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarni oilada ota-onalarga yordam berayotgan jarayonlari tasvirlangan surat bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undashga undash. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish. Oilada bolalar yordami mavzusida lug‘atni faollashtirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildirish: ota-onasiga bergan yordami bilan ota-onasini xursand qilish kabi ijobiy munosabatlarni tarbiyalash

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o‘zaro samimiy, do‘stona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam k‘yrsatishga tayyor bo‘lish, o‘rtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda bo‘lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

“Otam, onamga yordamchiman” mavzusida rasm

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga ota-onalariga yordam berishlari, o‘zlari qilgan ishlarining boshqalarga foydasi borligi, bolalarni o‘zlarining mehnatlarining natijasini ko‘rganda qanchalik quvonishlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Otam, onamga yordamchiman” mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “Otam, onamga yordamchiman” mavzusida she'rlar aytish

5. Bolalarning oilada ota-onalarga beradigan yordamlari haqidagi suhbatni, aytilgan she'rnı muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** “Oila” voqyeaband o'yini.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarnı surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e'tibor berish.

## **Oy: Dekabr**

### **1-hafta. Mavzu: Qish. Konstitutsiya kuni**

#### **Mavzu: «8-dekabr Konstitutsiya kuni» mavzusida suhbat**

#### **Maqsad:**

#### **“Nutq va til”:**

Bolalarga 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni, Konstitutsiya kuni bayramiga tayyorgarliklar haqidagi suhbatga muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarnı davlat ramzlari — bayroq, gerbi tasvirlangan surat bo'yicha hamda har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish xuquqiga ega ekanligi haqidagi suhbat paytida guruh muhokamasida muloqotga kirishish, faol ishtirok etishga undash.

#### **Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarning 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni- biz uchun muqaddas tarixiy qunligi, bu kun yurtimizda bayram kuni deb e'lon qilingani, Konstitutsiya davlatimiz mustaqilligining ramzi, xalq ozodlik timsoli ekani, Konstitutsiyada insonning hayoti, huquqlari va burchlari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangani haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

#### **Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam k'rsatishga tayyor bo'lish, o'rtoqlariga nisbatan mehrlı munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

#### **Kerakli jixozlar:**

davlat ramzlari — bayroq, gerbi tasvirlangan surat, “Mening xuquqlarim”, “Mening burchlarim” mavzusida mazmunli rasmlar

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni- biz uchun muqaddas tarixiy qunligi, bu kun yurtimizda bayram kuni deb e'lon qilingani, Konstitutsiya davlatimiz mustaqilligining ramzi, xalq ozodlik timsoli ekani, hamda Konstitutsiya kuni bayramiga tayyorgarliklar haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

#### **Asosiy qism:**

1. “Mening xuquqlarim”, “Mening burchlarim” mavzulari bo'yicha suratlarnı ko'rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “8-dekabr Konstitutsiya kuni” mavzusida she'rlar aytish

5. Bolalar bilan 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni, bayram oldi tayyorgarliklar haqidagi suhbatni muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** Vatanimiz ramzlari vidiorolik namoyishi

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarni surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e'tibor berish.

**Oy: Dekabr**

**Mavzu: Qish**

**2-hafta. Sog'lom tanda – sog'lom ruh**

**Mavzu: Gripp haqida nimalarni bilasiz? mavzusida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga gripp kasalligi, ularni gigiena qoidalariga rioya qilish haqidagi suhbatga muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarni “Tom-Tomchivoy” kitobidagi gripp kasalligining asosiy belgilari tasvirlangan surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undashga undash. Surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarga gripp kasalligi, ularni ozodalikka hamda gigiena qoidalariga rioya qilish, grippning asosiy belgilari, kasal bo'lganda bo'lganda amal qilish lozim bo'lgan qoidalari haqidagi suhbatga muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** bolalarda o'rtoqlariga kasal bo'lganlarida xamdarlik bildirish, yupatishni rag'batlantirish

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam k'rsatishga tayyor bo'lish, o'rtoqlariga nisbatan mehrlil munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

“Tom-Tomchivoy” kitobidagi rasmlar, “Salomatlik” mavzusida pazllar

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga gripp kasalligi, grippning asosiy belgilari, bolalarni ozodalikka hamda gigiena qoidalariga rioya qilish, kasal bo'lganda amal qilish lozim bo'lgan qoidalar haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Shaxsiy gigiena qoidalari” mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “Salomatlik” mavzusida pazllarni yig'ish

5. Bolalar bilan “Shaxsiy gigiena qoidalari” mavzusi bo'yicha suhbatni umumlashtirish va rag'batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** “Qo‘l yuvish odobi” AKT orqali ko‘rsatish.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** bolalarni shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e‘tibor berish.

**Oy: Dekabr**

**Mavzu: Qish**

**3-hafta. Mavsumiy kiyim-bosh va poyafzal**

**Mavzu: “Ustki kiyimlar” suhbat**

**Mavzu: Tikuvchi mehnati bilan tanishtirish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga tikuvchilik kasbi, kiyim tikishda ishlatiladigan mehnat quollarining nomi, ularning vazifalari haqidagi muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Bolalarni tikuv sexiga borib, tikuvchilar bilan suhbatlashib, ularning mehnatlari bilan tanishib kelganliklari haqidagi suhbat jarayonida faol ishtirok etishga undash.

Bog‘lanishli nutq: Bolalarni rasmda aks ettirilgan voqyealarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilishga o‘rgatish.

Lug‘at ishi: tikuvchi mehnat quollari (santimetr, qaychi, angishvona, to‘g‘nog‘ich, igna, iplar, tikuv mashina) mavzusida lug‘atini boyitish. Tikuvchining mehnat quollarining vazifalarini anglatuvchi so‘zlarni o‘rgatishda davom etish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarning tikuvchilik kasbi, tikuvchilikning mehnat quollari, “Tikuvchilik sexi” haqida tushunchalarini kengaytirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o‘zaro samimiy, do‘stona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam k‘rsatishga tayyor bo‘lish, o‘rtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda bo‘lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

“Tikuvchilik sexi” mavzusida mazmunli rasmlar

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta‘limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga tikuvchilik kasbi, bolalar orasida oyisi, buvisi, ammasi ular uchun kiyimlar tikkani, onalari, buvilari, opalari kiyim tikish uchun qanday mehnat quollaridan foydalanishlari haqidagi muloqatga kirishishlariga imkoniyat beriladi.

Pedagog bolalarga tikuv sexiga borib, ularning mehnatlari bilan tanishib kelganliklari haqida eslatadi.

**Asosiy qism:**

1. “Tikuvchilik sexi” mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “Tikuvchilik kasbi” mavzusida she’rlar aytish

5. Bolalar bilan “Tikuvchilik sexi” mavzusi bo’yicha suhbatni umumlashtirish va bolalarni rag’batlantirish

**Qo’shimcha qism:** Tikuvchiga nima kerak? ta’limiy o’yini

**Alohida e’tibor qaratiladi:** bolalarni tikuvchilik kasbi, kiyim tikishda ishlatiladigan mehnat qurollarining nomi, ularning vazifalari haqidagi suhbat paytida faol ishtirok etishlariga e’tibor berish.

**Oy: Dekabr**

**Mavzu: Qish**

**4-hafta. Yangi yil nima?**

**Mavzu: “Bog’chamizda qish bayrami” nomli surat ustida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga bog’chada bo’lib o’tgan qish bayrami, qish bayramiga tayyorgarliklar, qish bayramiga hammamiz orziqib kutgan saxiy Qorbobo, Qorqiz ishtirok etganligi, bayramimizni ko’ngilli o’tkazib berishgani haqidagi muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarga qish bayramini kattalar ham, bolalar ham birdek quvonch bilan o’tkazishi haqida tushuncha berish

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** bolalarda o’rtoqlariga bayramdan, qorbobodan sovg’a olganliklaridan quvonishlarini bildirishlarini rag’batlantirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o’zaro samimiy, do’stona muloqotga kirishish, o’rtoqlariga nisbatan mehrlil munosabatda bo’lishni tarbiyalash.

**Kerakli jixozlar:**

“Qish bayrami” tasvirlangan kartochkalar, “Sovg’alar” mavzusida pazllar

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga qish bayramiga tayyorgarlik ko’rganlari, uni qanday o’tkazganliklari, qish bayramini kattalar ham, bolalar ham birdek quvonch bilan o’tkazishi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Bog’chamizda qish bayrami” mavzusi bo’yicha suratlarni ko’rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo’yicha savol-javob o’tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “Sovg’alar” mavzusida pazllarni yig’ish

5. Bolalar bilan “Qish bayrami” mavzusi bo’yicha suhbatni umumlashtirish va rag’batlantirish

**Qo’shimcha qism:** Bayram ertaligi uchun yod olingan she’rlarni takrorlash.

**Alohida e’tibor qaratiladi:**

Rasmlarda aks ettirilgan voqyealarni izchil bayon qilishni, rasmga qarab mantiqan bogʻlangan hikoya tuzishlariga eʼtibor berish.

**Oy: Yanvar**

**Mavzu: Bolalar bogʻchasi**

**1-hafta. Qishki oʻyin-kulgilar**

**Mavzu: “Qishki oʻyinlar” nomli surat ustida suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga qish faslidagi obi-havodagi oʻzgarishlar, qishgi oʻyinlar, haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Soʻzlayotganda soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish koʻnikmalarini shakllantirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarning qishda qanday ermak oʻyinlar oʻynalishi haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan oʻzaro samimiy, doʻstona muloqotga kirishish, bir-biriga yordam kʻyrsatishga tayyor boʻlish, oʻrtoqlariga nisbatan mehrli munosabatda boʻlishni tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:**

“Qishki oʻyinlar” nomli surat

**Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi**

Tarbiyachi taʼlimiy faoliyatning kirish qismida bolalarga qish faslidagi obi-havodagi oʻzgarishlar, qishgi oʻyinlar, qishgi oʻyinlarni kattalar ham, bolalar ham qiziqib oʻynashlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Qishki oʻyinlar” mavzusi boʻyicha suratlarni koʻrib chiqish.

2. Surat mazmuni boʻyicha savol-javob oʻtkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. “Qishki oʻyinlar” mavzusida pazllarni yigʻish

5. Bolalar bilan “Qishki oʻyinlar” mavzusi boʻyicha suhbatni umumlashtirish va ragʻbatlantirish

**Qoʻshimcha qism:** “Qishki oʻyinlar” vidio-rolik koʻrsatish.

**Alohida eʼtibor qaratiladi:**

Rasmlarda aks ettirilgan voqyealarni izchil bayon qilishni, rasmga qarab mantiqan bogʻlangan hikoya tuzishlariga eʼtibor berish.

**Oy: Yanvar**

**Mavzu: Bolalar bog'chasi**

**2-hafta. Vatan himoyachilari kuni**

**Mavzu: "14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni" nomli surat ustida suhbat**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

Bolalarga 14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni ekani, haqidagi suhbat davomida muloqotga kirishishlariga imkoniyat berish.

So'zlayotganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vatan himoyachilari(askarlar, chegarachilar, piyodalar, tankchilar) mavzusida lug'at boyliklarini oshirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarning O'zbekiston harbiy qo'shinlari va ularning vazifasi, 14- yanvar harbiylarning kasb bayrami ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** bolalarda o'rtoqlariga Bolalarda Vatanga muhabbat, uni ko'z qorachig'idek saqlash hissini tarbiyalash, kattalarni o'z qo'llari bilan tayyorlagan sovg'alari bilan tabriklashlarinini rag'batlantirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o'zaro samimiy, do'stona muloqotga kirishish, o'rtoqlariga nisbatan mehrlil munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:**

"14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni" nomli surat

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga 14-yanvar- Vatan himoyachilari kuni ekani, Vatan himoyachilari bu bizning askar yigitlarimiz, bizning akalarimiz ekani, bolalar tez kunda ulg'ayib, Vatanimiz posbonlariga aylanishlari, askar yigitlar- Vatanimizni dushmanlardan himoya qilishlari va chegaralarimizni qo'riqlashlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. "14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni" mavzusidagi suratni ko'rib chiqish.

2. Surat mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazish.

3. Jismoniy daqiqa

4. "Harbiylar" mavzusida pazllarni yig'ish

5. Bolalar bilan "Qishki o'yinlar" mavzusi bo'yicha suhbatni umumlashtirish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** Vatanimiz ximoyachilari vidiorolik

**Alohida e'tibor qaratiladi:**

Rasmlarda aks ettirilgan voqyealarni izchil bayon qilishni, rasmga qarab mantiqan bog'langan hikoya tuzishlariga e'tibor berish.

**Oy: Yanvar**  
**Mavzu: Bolalar bog‘chasi**  
**3-hafta. Men va mening badanim**  
**Mavzu: “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz”**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga shaxsiy gigiena qoidalariga rioya etish, iflos qo‘llarda juda ko‘p kasal tarqatuvchi mikroblar to‘planishi, qo‘llarni toza yuvish, tishlarini tozalash haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarga qo‘llarni, tishlarni yuvganda amal qiladigan qoidalarni o‘rgatish, qo‘l, tish yuvish vaqtida suvni isrof qilmaslik, suvni tejash haqida tushunchalarni kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** Bolalarni ozada yurishdan quvonish hissiy holatini rag‘batlantirish

**Kerakli jihozlar:** “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz” mavzusida rasmlar gavda qismlari tasvirlangan suratlar

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga qo‘llarni, tishlarni yuvganda amal qiladigan qoidalarni o‘rgatish, qo‘l, tish yuvish vaqtida suvni isrof qilmaslik, suvni tejash haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
3. Jismoniy daqiqa “Savollarga javob bering” nomli o‘yin
4. “Ozodalik” mavzusida she‘rlar aytish
5. Bolalar bilan “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz” mavzusi bo‘yicha suhbatni umumlashtirish va rag‘batlantirish



**Qo‘shimcha qism:** “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz” vidiorolik

**Alohida e‘tibor qaratiladi:**

Bolaga o‘z-o‘zini parvarish qilish, o‘zini toza tutish, ozoda yurish, qo‘l va tishni yuvish, orasta va toza kiyinish, tirnoqlarni ozoda tutish, sochga qarashga e‘tibor berish.

**Oy: Yanvar**

**Mavzu: Bolalar bog‘chasi**

**4-hafta. Xushmuomalalik alifbosi**

**Mavzu: «Kechiring, oyijon!» hikoyasi**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma‘noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar “Ota-onaga hurmat” haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlarga qarab* mazmunan so‘zlab beradi.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

O‘z oila a‘zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma‘lum bir qoidalarga rioya qiladi: Bolalar ota-ona chaqirganda «Labbay», “Xo‘p bo‘ladi”deb javob berish, nasihatlariga quloq solish, qilayotgan ishlariga ko‘maklashish, ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolg‘on gapirmaslik lozimligini tushunadi.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu bo‘yicha rasmlar.

**Ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta‘limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga ota-ona dunyodagi eng aziz, eng yaqin kishimiz ekani, ota-onasini yaxshi ko‘radigan bolalar ota-onalariga muloyimlik bilan gapirishlari, farzand o‘zining yaxshi odobi bilan ota-onasiga rahmat keltirishini haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Ota-onani hurmat qilish” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.
2. “Kechiring oyijon” hikoyasini o‘qib berish.
3. Jismoniy daqiqa “Savollarga javob bering” nomli o‘yin
4. O‘qilgan asar bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
5. Jismoniy daqiqa
6. Bolalarning asarni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** “Otam, onam” mavzusida she‘rlar aytish.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilishga e‘tibor qaratish.

## **Kechiring, oyijon!**

### **Hikoya**

Ahmadjon ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynab qolib, uyga kech qaytdi. Onasi tashvishlanib o'tirgan ekan. U onasining holatini ko'rib hijolat bo'ldi va:

- Oyijon, meni kechiring, endi bunday qilmayman, – dedi. Onasining chehrasi biroz yozildi va:

-Ahmadjon, sen aqlli bolasan, men senga ishonaman, – dedi.

### **Oy:Fevral**

#### **Mavzu: G'aroyib dunyo**

#### **1-hafta. Qo'shni mamlakatlar**

#### **Mavzu: «Do'stlik ulug' baxt» qirg'iz xalq ertagini qayta hikoya qilish**

#### **Maqsad:**

#### **“Nutq va til”:**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So'zlayotganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bolalar “Do'stlik” haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari bo'yicha yoki suratlarga qarab* mazmunan so'zlab beradi.

#### **Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

O'z oila a'zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma'lum bir qoidalarga rioya qiladi: Bolalar ota-ona chaqirganda «Labbay», “Xo'p bo'ladi”deb javob berish, nasihatlariga quloq solish, qilayotgan ishlariga ko'maklashish, ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolg'on gapirmaslik lozimligini tushunadi.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu bo'yicha rasmlar.

#### **Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga oilada aka-ukalarning ahilligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

- 1.“Oilada aka-ukalar” mavzusidagi suratni ko'rib chiqish.
2. «Do'stlik ulug' baxt» qirg'iz xalq ertagini qayta hikoya qilish
- 3.Ertak asosida savol- javob o'tkazish
- 4.Ertakni qayta hikoya qilish.
- 5.Jismoniy daqiqa
- 6.Bolalarning ertakni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** “Oilada ahil yashash” mavzusida she'rlar aytish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo'llay bilishga e'tibor qaratish.

**Oy: Fevral**  
**Mavzu: G‘aroyib dunyo**  
**2-hafta. Dunyo mamlakatlari**  
**Mavzu: «Rostgo‘y bola» koreys xalq ertagini qayta hikoya qilish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma‘noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar “Rostgo‘ylik”, haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlarga qarab* mazmunan so‘zlab beradi.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolalarda rostgo‘ylik, kamtarlik bo‘lish, ga chaqirish. Rost so‘zlash kishini murod-maqsadiga yetkazishi, uning mardlik va haqgo‘ylik hislarini shakllantirishda hissasi katta ekanligi. Rostgo‘ylikning atrofdagilar qalbida ishonch, hurmat va e‘tiqodni kamol toptirishdagi rolini alohida uqtirish. Rostgo‘ylik haqida maqol va hikoya o‘qib berib, uni sharhlash. lozimligini tushunadi.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu bo‘yicha rasmlar.

**Ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta‘limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga Koreya davlati xaqida qisqa ma‘lumot beradi. .... haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. “Oilada aka-ukalar” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.
2. «Rostgo‘y bola » koreys xalq ertagini qayta hikoya qilish
3. Ertak asosida savol-javob o‘tkazish
4. Ertakni qayta hikoya qilish.
5. Jismoniy daqiqa

6. Bolalarning ertakni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish

**Qoʻshimcha qism:** “Rostgoʻylik” mavzusida maqollar aytish.

**Alohida eʼtibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini soʻzlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (soʻroq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qoʻllay bilishga eʼtibor qaratish. Maqollar mazmuniga tushunish

**Oy: Fevral**

**Mavzu: Gʻaroyib dunyo**

**3-hafta. Oʻzbekistonning buyuk arboblari**

**Mavzu: Alisher Navoiy «Non hidi» rivoyatini qayta hikoya qilish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, maʼnoli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Soʻzlayotganda soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish koʻnikmalarini shakllantirish.

Bolalar Alisher Navoiy “Non hidi” rivoyati haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari boʻyicha yoki suratlarga qarab* mazmunan soʻzlab beradi.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Oʻz oila aʼzolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida maʼlum bir qoidalarga rioya qiladi: Bolalar ota-ona chaqirganda «Labbay», “Xoʻp boʻladi” deb javob berish, nasihatlariga quloq solish, qilayotgan ishlariga koʻmaklashish, ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolgʻon gapirmaslik lozimligini tushunadi.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu boʻyicha rasmlar.

**Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi taʼlimiy faoliyatning kirish qismida bolalarga oilada aka-ukalarning ahilligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. “Non turlari” mavzusidagi suratni koʻrib chiqish.

2. «Non hidi» rivoyatini qayta hikoya qilish

3. Rivoyat asosida savol- javob oʻtkazish

4. Rivoyatni qayta hikoya qilish.

5. Jismoniy daqiqa

6. Bolalarning rivoyatni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish

**Qoʻshimcha qism:** “Non” mavzusida sheʼrlar aytish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini soʻzlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (soʻroq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qoʻllay bilishga e'tibor qaratish.

**Oy:Fevral**

**Mavzu: Gʻaroyib dunyo**

**4-hafta. Kitob tarixi va inson**

**Mavzu: “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini soʻzlab berish.**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

“Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini soʻzlab berish orqali bolalarning monologik nutqini rivojlantirish, gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, maʼnoli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Soʻzlayotganda soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda rivoyatni qayta hikoya qilish koʻnikmalarini rivojlantirish.

**Itellektual-bilish malakalari**

“Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini soʻzlab berish orqali bolalarni kitobxonlikka boʻlgan qiziqishlarini uygʻotish

**Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Buyuk siymolar bilan faxrlana olish, gʻururlanishlarini qoʻllab- quvvatlashlarini ragʻbatlantirish.

**Kerakli jihozlar:** Rivoyat mazmuni boʻyicha rasmlar. Ali Abu ibn Sinoning portreti; kitoblari; shifobaxsh giyohlarning rasmi(yoki asli).

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga qalbida *kitobga mehr koʻyib, bilim olishga ixlosli boʻlish tushunchasini uygʻotish maqsadiga yoʻnaltirilgan suhbat bilan boshlaydi. Bolalarga* Ali Abu ibn Sinoning har xil kasalliklar haqida yozilgan kitoblarni topib oʻqib, bilimni kun sayin oshirgani, kitob - boylik, bitmas-tuganmas xazina ekanligini kichik yoshidan boshlab tushingani va umri davomida kitobdan ayrilmagani, kitob bilan chin oʻrtoq, doʻst boʻlgani haqida suhbatdan boshlaydi va bolalarga “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini oʻqib berishini aytadi.

1. “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini oʻqib berish.

2. Rivoyat asosida savol-javob oʻtkazish

3.Jismoniy daqiqa

5.Bolalarning rivoyat mazmuni haqidagi fikrlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish

**Qoʻshimcha qism: “Ibn Sino va kitoblar” rivoyati asosida rasmlar koʻrish.**

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Soʻzlayotganlarida soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish.

**IBN SINO VA KITOBLAR**

### (Rivoyat)

Roviylar rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dong‘i ketgan, mashhur hakimlarning hakimi dono Ibn Sino o‘tgan ekan. Ibn Sino yoshligidanoq ilm-fanga berilib, ko‘p o‘qibdi. O‘qigan kitoblari borki, o‘qibdi, yod olibdi. Bundan tashqari hayvonlarning “gap-so‘z”larini ham, parranda-darrandalarning tilini ham, giyohlarning holatini ham biladigan, tushunadigan bo‘libdi. Bolalar o‘yin-kulgu bilan band bo‘lishsa, Ibn Sino chumoli, qumursqalarni tutish, ilon qurbaqalarni ushlab bilan ovora ekan. O‘z-o‘zidan giyohlardan dori-darmonlar tayyorlab, oshnalaridan birini kasal qilib uni davolash bilan shug‘ullanar ekan. Bolasidagi bu qiliq – odatlani ko‘rgan ota-ona uni maktabga beribdi. Ibn Sino maktabda o‘qiladigan kitoblarni allaqachon o‘qib, ularni uqib olgan ekan. Shuning uchun maktabga bormay qo‘yibdi. Ota-onasi shaharda o‘qisin, deb Buxoroga ko‘chib kelishibdi. Ammo madrasadagilar eshigiga yaqinlashtirishmabdi. Ibn Sino noiloj yana o‘zicha o‘qib, uqib yuraveribdi. Yana giyoh, o‘t-alaflar to‘plab, ilon, chayon, toshbaqalarni tutib, ular ustida soatlab, kunlab, haftalab mashq qilib yuraveribdi.

Ba'zi bir kasallar oldiga kelsa, davolab, dardiga shifo bera boshlabdi. Bora-bora juda ham zo‘r tabib bo‘lib ketibdi. Ammo Ibn Sino qanchalik sir saqlamasin, sirlari oshkora bo‘laveribdi. Chunki “gapni gap quviydi, sirni sir ochadi”, degan gap bor. Ibn Sinodan shifo topgan odam bugun bir bo‘lsa, ertasiga ikki bo‘libdi. “Men falonchidan shifo topdim”, - deb bir kishi ikkinchi kishiga aytsa, ikkinchisi unga yana qo‘shib, “falonchi-falonchi Ibn Sinodan shifo topibdi, kasal edi tuzalibdi”, - deb gap tarqataveribdi. Hamma yoqqa ovozas ketibdi. Shunday bo‘lsa ham g‘alamis tabiblar uni tan olishmas, shaharga yo‘latishmas ekan. Kunlardan bir kuni Samarqandga teng keladigan, balki undan o‘tadigan Buxoro shahrining xoni kasalga chalinib, yotib qolibdi. Avvaliga saroy tabiblari: “Hyech gapmas, xonimiz tuzalib ketadilar, kasallari unchalik og‘ir emas”, - deyishibdi. Qarashibdi, davolashibdi, xon tuzalmabdi. Keyinchalik boshqa mamlakatlardan man-man degan tabiblarni oldirib kelib, qaratishibdi, xon tuzalmabdi. Hyech kim xonning dardiga malham topa olmayotganligini ko‘rib, xon kishilari xavotirga tushib qolishibdi. “Endi xonimiz o‘lib qolarkan-da”, - deyishib o‘zlarini u yoqqa urishibdi, hyech nima chiqarisholmabdi. Oralaridan birovini esiga Ibn Sino tushib, shuni chaqirtirsak-chi, deb qolibdi. Bu gap hammaga ma‘qul tushibdi. Tezlikda Ibn Sinoni saroyga keltirishibdi. Bosh tabib unga yalinib-yolvoribdi: - Ulug‘ xonimizning amru farmonlari shunday, biz u kishini davolab, shifo toptirishimiz kerak. Aks holda hammamizning boshimiz qilichdan o‘tkazilur yohud dorga tortilurmiz, - debdi. Ibn Sino:

- Men nima qilmog‘im darkor? – deb so‘rabdi.

- Xonimizni tuzatmog‘ing darkor, deb javob beribdi bosh tabib. Ibn Sino:

- Kasalni ko‘rmay, tomirini ushlabmay, qanday davolayman. Axir meni uning oldiga olib kiringlar-da, - debdi. Bosh tabib Ibn Sinoni xonning oldiga olib kiribdi. Ibn Sino kasalni ko‘rib, tomirini ushlabdi-da, iziga qaytib qishlog‘iga qaytib ketibdi. Ibn Sinoni kasalni ko‘rib, tomirini ushlab hyech nima demasdan qishlog‘iga qaytib ketganini xon o‘zicha, tabiblar o‘zicha tushunishibdi. Xon: “Kasalim og‘ir ekan, endi o‘lar ekanman”, deb o‘ylagan bo‘lsa, tabiblar: “Ibn Sino

haliyam bizdan hafa ekan. Shohni tuzatsam bular omon qoladi, tuzatmasam ularning boshi ketadi” – deb o‘ylashibdi. Xon tabiblarni yoniga chaqirib: “Kasalimni tezlikda tuzatmasalaring, bola-chaqalaringni o‘zlaringga qo‘shib dorga torttiramani”, - debdi. Tabiblarning yana boshlari qotibdi. Ibn Sinoga yana odam yubormoqchi bo‘lishibdi. Shu payt Ibn Sinoning o‘zi kirib kelibdi-da, xonning oldiga kelib uyida tayyorlangan dorini beribdi. Xon dorini ichibdi. Ibn Sino hyech kimni yoniga yo‘latmay, xonning boshida unga tikilgancha o‘ltiraveribdi. Xon uyquga ketibdi, ancha vaqt o‘tgandan keyin o‘ziga kelib, yemak so‘rabdi. Ibn Sino suv berishlarini buyuribdi. Xon o‘ziga kelib, tuzalib qolgach, Ibn Sinodan, nima bersam xursand qilgan bo‘laman, debdi. Ibn Sino hyech narsa talab qilmabdi. “Bir qop tilla ol!” – debdi xon. Ibn Sino qabul qilmabdi. “Yurt so‘ra, yurt beray”, - debdi xon. Ibn Sino hyech narsa olmasligini aytibdi. “Suruv-suruv ot, qo‘y beray”, debdi xon. Ibn Sino yana, hyech nima kerak emas, debdi. Xon so‘ra, beray, deyavergach, Ibn Sino: “Xonim, men harakat qildim, xudo shifo berdi-yu, tuzalib oyoqqa turdingiz. Menga hyech qanday tilla ham, yurt ham, suruv-suruv ot, qo‘ylar ham kerak emas, qishlog‘imga bir qiroatxona qurdirib, qirq tuya kitob bersangiz bo‘lgani”, - debdi. Xon xursand bo‘lib, barcha ustalarni yig‘dirib, Ibn Sino qishlog‘iga katta qiroatxona qurdirishga kirishibdi. Butun dunyoga jar solib kitob yig‘diribdi, o‘zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblarni olib, 40 tuyaga yuklatib, Ibn Sino qishlog‘iga jo‘natibdi. Qiroatxona bitib, kitoblar keltirib bo‘lingach, Ibn Sino kutubxona ichiga kirib ketibdi. Xonni o‘limdan olib qolgan Ibn Sino og‘izga tushib, dong‘i har yonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlashibdi. Ko‘pchilik bo‘lib, Ibn Sinoning oldiga borishibdi. Kutubxonaga borib kitoblar orasidan Ibn Sinoni zo‘rg‘a topishibdi-da, undan:

- Xonlikdan kelganingizdan beri shu yerda kitob tiktilab yotibsizmi? – deb so‘rashibdi. Ibn Sino:

- Ha, eng yaqin do‘stlarim – kitoblar bilan suhbat qurib, kunu oy, haftayu yillar o‘tganini ham sezmayapman. Miyamni ilmga, cho‘ntagimni hazinaga to‘ldirish bilan bandman, - debdi.

- Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? – deb so‘rabdi tabiblardan biri.

- Yo‘q, tabibligimni qiyomiga yetkazmoqdaman. Avval ulug‘ ustozlarimni pandu-nasihatlarini ko‘rsatmalarini bilib olib, keyin davolashga o‘taman. Men shu kungacha o‘zimni zo‘r tabib hisoblab katta xatoga yo‘l qo‘ygan ekanman. Endi mana bu kitoblarimdan olganlarimni amaliyot bilan mustahkamlay olsamgina, o‘zimni tabib deb atashga haqliman, - debdi. Tabiblardan yana biri:

- Bordi-yu, kutubxonangizga o‘t ketsa, nima bo‘ladi? – debdi. Ibn Sino:

- Avvalambor, kutubxonamga o‘t ketishdan xudo saqlasin, Bordi-yu, falokat ro‘y berib, o‘t ketsa, unda cho‘chidigan joyim yo‘q. Hammasini yod bilurman. Qaytadan yozib chiqishga umrim ketsa kifoya, - debdi. Tabiblar Ibn Sinoning zehni bilan xotirasiga qoyil qolib, kelgan joylariga qarab ketibdilar. Oradan kunlar o‘tibdi, oylar o‘tibdi, baribir tabiblar hasad qilishni qo‘ymabdilar. Bundan xabar topgan Ibn Sino chopib borib, kutubxona ichiga kirib ketibdi. “Yaxshisi, do‘stlarim bilan birga yona qolay”, - deya kitoblar orasida o‘ltiraveribdi. Odamlar zo‘rg‘a qutqazib qolishibdi. Ibn Sino kuygan kitoblarni yoddan qayta bitib, tiklabdi-da,

kutubxonani yangitdan qurdiribdi. U umrining ko‘p qismini o‘sha yerda o‘tkazgan ekan.

**Oy: Mart**  
**Mavzu: Go‘zal bahor**  
**1-hafta. Onamning kuni**  
**Mavzu: “Onamlarning bayrami” suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga 8-mart- Xalqoro xotin-qizlar kuni ekani, haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarning 8-mart- Xalqoro xotin-qizlar kuni ekani haqida tasavvurlarini kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** bolalarda o‘rtoqlariga Bolalarda onalarga muhabbat, uni ko‘z qorachig‘idek saqlash hissini tarbiyalash, kattalarni o‘z qo‘llari bilan tayyorlagan sovg‘alari bilan tabriklashlarinini rag‘batlantirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan o‘zaro samimiy, do‘stona muloqotga kirishish, o‘rtoqlariga nisbatan mehrlil munosabatda bo‘lishni tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:**

“Onalar bayrami” nomli surat

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga 8-mart- Xalqoro xotin-qizlar kuni ekani, 8-mart Xotin-qizlar bayrami go‘zal va betakror yurtimizga bahor nafasi kirib kelganidan darak beradi.

Onani e'zozlash - bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan fazilat. Chunki onalarni qancha ulug‘lasak, demakki, oilamizni e'zozlagan bo‘lishimiz haqida tarbiyachi gapirib suhbatni boshlaydi.

**Asosiy qism:**

1. “Onamga sovg‘a” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.
2. Surat mazmuni bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.
3. Bolalarga “Onamga sovg‘a” mavzusidagi suratni asosida hikoya tuzdirish. Tarbiyachi avval bolalar onalariga qanday sovg‘a tayyorlashni o‘ylab ko‘rganliklarini, bu kunga qanday tayyorlanganliklarini, keyin rasmda nima tasvirlanganligini va bayramni qanday o‘tkazganliklarini aytib berishni so‘raydi.
3. Jismoniy daqiqa
4. “Gullar” mavzusida pazllarni yig‘ish



5. Bolalar bilan “Onalar bayrami” mavzusi bo‘yicha suhbatni umumlashtirish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** Onalar bayrami vidiorolik

**Alohida e‘tibor qaratiladi:**

Rasmlarda aks ettirilgan voqyealarni izchil bayon qilishni, rasmga qarab mantiqan bog‘langan hikoya tuzishlariga e‘tibor berish.

**Oy: Mart**

**Mavzu: Go‘zal bahor**

**2-hafta. Mavsumiy o‘zgarishlar.**

**Mavzu: “Sumalak-ko‘klam mo‘jizasi” rivoyatini so‘zlab berish.**

**Maqsad:**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma‘noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchilikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar “Sumalak-ko‘klam mo‘jizasi” rivoyati haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlarga qarab* mazmunan so‘zlab beradi.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Navro‘z bayrami udumlari, urf-odatlarini xaqida tushunchalarini rivojlantirish. Kishilar Navro‘z bayramiga atab qariyalarga sovg‘alar tayyorlashishi, bemorlarni ko‘rib ulardan xabar olishi, qariyalarga yalpiz, binafsha, boychechak kabi gullar olib borishi, natijada kishilar orasida mehr-oqibat oshishi xaqida tushuncha berish.

**Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarning Navro‘z bayrami haqida, navro‘z bayramining udumlari, urf-odatlarini xaqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu bo‘yicha rasmlar.

**Ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga Navro‘z bayrami udumlari, urf-odatlarini haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. “Sumalak-ko‘klam mo‘jizasi” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.

2. **“Sumalak-ko‘klam mo‘jizasi” rivoyatini o‘qib berish.**

3. Rivoyat asosida savol- javob o‘tkazish

4. Rivoyatni qayta hikoya qilish.

5. Jismoniy daqiqa

6. Bolalarning rivoyatni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** “Bahorgi taomlar” mavzusida she‘rlar aytish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini soʻzlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (soʻroq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qoʻllay bilishga e'tibor qaratish.

**Oy: Mart**

**Mavzu: Goʻzal bahor**

**3-hafta. Xalq manbalari. Navroʻz bayrami**

**Mavzu: Ijodiy hikoya tuzish. “Navroʻz bayramini qanday oʻtkazdim?”**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga oʻlkamizga bahor kirib kelishi bilan yilimiz oʻz umrini yangitdan boshlashi: jamiki mavjudot oʻz umrini shu bahordan boshlashi, shuning uchun ham qadimda yilning boshini bahorning 21 martidan hisoblaganlari va uni katta bayram qilganlari, ana shuning uchun Navroʻz yangi kun deb atalgani, qadim-qadimdan Navroʻz e'zozli boʻlib kelgan: yangi kun, yangi yil, yangi fasl degan ma'noni bildirishi haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

Soʻzlayotganda soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish koʻnikmalarini shakllantirish.

**Intellectual-bilish malakalari**

Bolalarning 21-mart- Navroʻz bayrami nishonlanadigan kun ekani haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** bolalarda oʻrtoqlariga Bolalarda Navroʻz bayrami, bayramga tayyorgarlik kattalarni oʻz qoʻllari bilan tayyorlagan sovgʻalari bilan tabriklashlarini ragʻbatlantirish.

**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**

Bolada tengdoshlari bilan oʻzaro samimiy, doʻstona muloqotga kirishish, oʻrtoqlariga nisbatan mehrlil munosabatda boʻlishni tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar: “Navroʻz bayrami” mavzusida rasmi**

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga Navroʻz bayrami oʻtganligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. “Navroʻz bayrami” mavzusidagi suratni koʻrib chiqish.

2. Surat mazmuni asosida savol- javob oʻtkazish

4. Bolalarda “Navroʻz bayramini qanday oʻtkazdim” mavzusidagi hikoyalarini tinglash va ragʻbatlantirish.

Bolalar tarbiyachining savollari boʻyicha yoki suratlarga qarab “Navroʻz bayramini qanday oʻtkazdim” mavzusida hikoya tuzadilar.



Navro'z-bahor..... bayrami. Navro'z- yangi.... kun degani. Navro'zda tabiat..... uyg'onadi. Birinchi bo'lib..... boychechak ochiladi. Onalarimiz navro'z bayramida..... sumalak, ko'k somsalar pishiradilar. Turli tomoshalar..... bo'ladi. Bolalar varrak .....uchiradilar, turli o'yinlarni..... o'ynaydilar. Kattalar daraxtlar .....ekadilar.

Endi kim hikoyani boshidan aytib beradi (3 - 4 bolalar javoblari).

5.Jismoniy daqiqa.

**Qo'shimcha qism:** Navro'z bayrami mavzusida she'r aytish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** So'zlayotganlarida so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish.

**Oy: Mart**

**Mavzu: Go'zal bahor**

**4-hafta. Hasharotlar**

**Mavzu: "Qumursqa" o'zbek xalq ertagini o'qib berish**

**Maqsad:**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

Bolalarda badiiy asarni ifodali hikoya qilish, gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So'zlayotganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, badiiy asarni qayta hikoya qilish, asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bolalar "Qumursqa" ertagi haqidagi suhbatda *tarbiyachining savollari bo'yicha yoki suratlarga qarab* mazmunan so'zlab beradi.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Chumolilarning zararkunanda hasharotlarni qirib, katta [foyda](#) keltirishi, ularga zarar keltirmaslik, ularni asrash xaqida tushuncha berish.

### **Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarning bahor faslida chumolilar hayoti haqida, yashash tarzi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** Mavzu bo'yicha rasmlar.

### **Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga bahor faslida chumolilar hayoti haqida, yashash tarzi haqidagi haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. "Chumolilarning bahorgi hayoti" mavzusidagi suratni ko'rib chiqish.
2. "Qumursqa" o'zbek xalq ertagini o'qib berish.
3. Ertak asosida savol- javob o'tkazish
4. Ertakni qayta hikoya qilish.
5. Jismoniy daqiqa
6. Bolalarning ertakni qayta hikoya qilishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish

**Qo'shimcha qism:** Raim Farhodiy. "Salom, chumoli" she'ri.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo'llay bilishga e'tibor qaratish.

### **Oy: Aprel**

### **Mavzu: yer sayyorasi – umumiy uyimiz 1-hafta. Gullab-yashnayotgan bahor**

Mavzu: R. Fayzning "Momoqaymoq" she'rini yodlatish

### **Maqsad:**

### **"Nutq va til":**

R. Fayzning "Momoqaymoq" she'rini yod oldirish orqali bolalarni she'riy asardan zavqlanishga, undagi yumorni his etishga undash. Muomala madantti haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Mox — so'ziga izoh berish. Bolalar o'xshash narsalarni qiyoslayotganlarida nutqlarida go'yo, go'yoki, xuddi kabi so'zlaridan foydalanishga o'rgatib borish. Bolalarning mashg'ulotlarda qiziqib, faol ishtirok etish, savollarga tushunib, aniq va dadil javob berish layoqatlarini shakllantirish.

### **Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyati**

Momoqaymoq o'simligi haqida tushuncha berish orqali bolalarning tasavvur doiralarini kengaytirish, badiiy-estetik didini o'stirish.

### **Dunyoni badiiy tasavvur etish**

Bolalarga she'rni yoddan ifodali o'qish, she'riy asarlarga munosabat bildirishni rag'batlantirish.

### **Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muhabbat uygʻotish. Bu muhabbat bilan bolalarni tabiatni avaylashga, asrashga, ehtiyotkorlik munosabatida boʻlishga oʻrgatish.

**Kerakli jihozlar:** Momaqaymoq gulining gullagan payti, urugʻ boylagan payti haqidagi manzarali rasmlar, videofilmlar.

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga bahor oyi birinchi martdan boshlanishi, mart oyida dalalar koʻklam libosini kiyishi, boychechak, chuchmoma, qoqioʻt, gunaf-shalar ochila boshlashi, momaqaymoqning rivojlanish sikli — bahorda barglari, gʻunchalari paydo boʻlishi, gullashi, urugʻlarining pishishi va ularning tarqalishi kuzatilgani haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. Keng oʻtloqzordagi momaqaymoq gullari, momaqaymoq guli suratlarini koʻrib chiqish

2.R.Fayzning "Momaqaymoq" she'rini yod oldirish.

2. She'r asosida savol-javob oʻtkazish

4.Jismoniy daqiqa

5.Bolalarning she'r mazmuni haqidagi fikrlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish

**Qoʻshimcha qism:** keng oʻtloqzorga maqsadli sayrga borilganlik haqida vidiorolik.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni she'rni ifodali aytishlariga e'tibor qaratish.

### Quddus Muhammadiyning "Momaqaymoq" she'ri

Erta koʻklam elchi gul - Momaqaymoq, qoqi oʻtjon. Keng koʻchamiz chekkasini Bezatdi tilla marjon	Guli sadaf tugmacha, Soʻngra oltin savatcha. Boʻlar jajji yulduzcha, Koʻrsang koʻzing quvnaydi
---	---

**Oy: Aprel**

**Mavzu: yer sayyorasi – umumiy uyimiz**

**2-hafta. Koinot sirlari.**

**Mavzu: “Bu mening yulduzim” rivoyatini oʻqib berish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

“Bu mening yulduzim” rivoyatini oʻqib berish orqali bolalarning monologik nutqini rivojlantirish, gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Soʻzlayotganda soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda rivoyatni qayta hikoya qilish koʻnikmalarini rivojlantirish.

**Itellektual-bilish malakalari**

“Bu mening yulduzim” rivoyatini o‘qib berish orqali bolalarni koinot ilmiga qiziqish uyg‘otish

### **Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Buyuk siymolar bilan faxrlana olish, g‘ururlanishlarini qo‘llab- quvvatlashlarini rag‘batlantirish.

**Kerakli jihozlar:** Rivoyat mazmuni bo‘yicha rasmlar.

### **Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga osmondagi yulduzlar, qadim-qadim zamonlardan oq odamlar ba'zi yulduzlarning osmonda g‘alati shakllar hosil qilib, to‘p-to‘p bo‘lib joylashishini payqaganlari va ularni “yulduzlar turkumi” deb ataganlari, bu yulduzlar turkumi notanish joyda yo‘l topishga yordam berishi, bolalar ota-onalari bilan “yetti qaroqi”, “Somon yo‘li”, “yetti og‘ayni”, “Katta ayiq”, “Cho‘mich yulduzlari” kuzatilganligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi va bolalarga “Bu mening yulduzim” rivoyatini o‘qib berishini aytadi.

1. “Bu mening yulduzim” rivoyatini o‘qib berish.

2. Rivoyat asosida savol-javob o‘tkazish

3. “Yulduzlar” mavzusidagi ta'limiy o‘yin.

4. Jismoniy daqiqa

5. Bolalarning o‘yin mazmuni haqidagi fikrlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** Koinot mavzusida slayd taqdimoni namoyish qilish.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** So‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish.

### **“BU MENING YULDUZIM”...**

Ulug‘bek yoshligidan boshlab samoga qiziqib boqar, tunda esa yulduzlarni sanagani-sanagan ekan. Lekin qancha sanamasin, oxiriga yetkaza olmaskan. Kunlardan bir kuni, oydin tunda saroy bog‘ida o‘ynab yurib, akasi bilan gap talashib qolibdi. Ulug‘bek: “huv anavi yulduz meniki”, desa, akasi: “Yo‘q unday dema, gunoh bo‘ladi. Hamma yulduz hudoniki”, debdi.

Ulug‘bek: “Voybo‘, shuncha yulduzning hammasi hudonikimi, yo‘q sen xato qilasan, huv anavunisi meniki”, - deb o‘z so‘zida turib olibdi. Akasi ham: “Yo‘q sen xato qiladursan”, - deb u ham o‘z so‘zida qattiq turib olibdi. Aka-uka talashib-tortishib, bir-biri bilan: “Yo‘q seniki noto‘g‘ri – meniki to‘g‘ri”, deyishganicha otalarning oldiga borishibdi. Otasi gap nimadaligini so‘rabdi.

Akasi:

- Ulug‘bek samodagi hudoning yulduzlaridan birini meniki, deb xatoga yo‘l qo‘yadur, - debdi.

- Yo‘q, - debdi Ulug‘bek, so‘zida qat‘iy turib, - buning o‘zi hato qiladur. Shuncha yulduzni yolg‘iz xudo nima qiladur. Alardan birovi meniki.

Otasi bu gap aylansa oqibati yaxshi bo‘lmasligini anglab:

- Ha, mayli, samodagi eng yorug‘ o‘sha yulduz Ulug‘bekniki bo‘la qolsin, - debdi.

“Yulduzimni topib oldim!” Yulduzimni topib oldim!” – deya xitob qilibdi. Ulug‘bek sevinch bilan samoga boqarkan.

Ulug‘bekning porloq yulduzi cheksiz koinot qarida hanuzgacha chaq nab turibdi.

### **Oy: Aprel**

**Mavzu: yer sayyorasi – umumiy uyimiz**

**3-hafta. yer sayyorasi kuni**

**Mavzu: yer kuni**

**Mavzu: Qambar Otaev. “yer” she'rini yod oldirish**

#### **Maqsad:**

#### **“Nutq va til”:**

“Qambar Otaev. “yer” she'rini yod oldirish orqali bolalar qalbida ona-yerga muhabbat, qalblarida g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish; she’rdagi mazmuni tushunish ko‘nikmasini mustahkamlash.

Bolalarni “Suv hammaga kerak” mavzusidagi ta'limiy o‘yin orqali *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlarga qarab* mazmuni so‘zlab berish malakasini rivojlantirish. So‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar hayvon, o‘simlik, qushlarni parvarish qilish, ularga g‘amho‘rlik ko‘rsatish, suvni isrof qilmaslik, uni tejash kerakligi haqida tushunchalarini mustahkamlash.

#### **Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muhabbat uyg‘otish. Bu muhabbat bilan bolalarni tabiatni avaylashga, asrashga, ehtiyotkorlik munosabatida bo‘lishga o‘rgatish.

“Suv hammaga kerak” mavzusidagi ta'limiy o‘yin orqali bolalarni tabiatni asrash, avaylash insonlar qo‘lida ekani, uyda hayvon, o‘simlik, qushlarni parvarish qilish, ularga g‘amho‘rlik ko‘rsatish, gullarga suv quyish, gullarni o‘stirish, suvni muqaddas deb bilish, uni isrof qilmaslik, uni tejash, tozalikka rioya qilish, tabiatni asrash haqida tushunchalarini mustahkamlash.

#### **Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyati**

“Suv hammaga kerak” mavzusidagi ta'limiy o‘yin orqali suv obi- hayot ekanligi, suv bo‘lmasa hayot bo‘lmasligi, insonlarning undan ichish, yuvinish, dehqonchilik, chorvachilik, qurilish va hokazolarda foydalanishi, suvni asrash, oqar ariqlarni toza saqlash, axlat tashlamaslik, suvni isrof qilmaslik, undan oqilona foydalanish har birimizning burchimiz ekanligi, suvning inson hayoti uchun zarurligi, insonga huzur, tabiatga go‘zallik bag‘ishlashi, eng bebaho boylik ekanligi, suvni isrof qilmaslik, uni asrashni rasmlar orqali mustahkamlash.

**Kerakli jihozlar:** “Suvni asraymiz ” nomli ko‘rgazmasi, mavzu bo‘yicha rasmlar.

#### **Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga insonlar hayotida suvning ahamiyati, suvni e'zozlash, tejash insonlar qo‘lida ekani, uyda hayvon, o‘simlik, qushlarni parvarish qilish, ularga g‘amho‘rlik ko‘rsatish, gullarga suv

quyish, gullarni o‘stirish, suvni muqaddas deb bilish, uni isrof qilmaslik, uni tejash, tozalikka rioya qilish, tabiatni asrash haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. Qambar Otaev. “yer” she'rini yod oldirish.
2. She'r asosida savol-javob o‘tkazish
3. “Suv hammaga kerak” mavzusidagi ta'limiy o‘yin.
4. Jismoniy daqiqa
5. Bolalarning o‘yin mazmuni haqidagi fikrlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** Suvni e'zozlash haqida maqollar aytish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** Bolalarni she'rni ifodali aytishlariga e'tibor qaratish.

“Suv hammaga kerak” ta'limiy o‘yin uchun ko‘rgazma



Qambar Otaev. “yer” she'ri

yer dunyoda yagona,  
Hamma odamga ona.  
Kiydirgan ham ona yer,  
yedirgan ham ona yer.  
Zaminda odam hayot,  
Faqat unda kular baxt.  
Shu sabab qo‘yib ixlos,  
yerni qilaylik e'zoz.

**Oy: Aprel**

**Mavzu: yer sayyorasi – umumiy uyimiz**

**4-hafta. Sayyorani saqla!**

**Mavzu: Ibrohim Rahimning “Ona yer” hikoyasini o‘qib berish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**



“Ona yer” hikoyasini o‘qib berish orqali bolalarning monologik nutqini rivojlantirish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma’noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, surat asosida suhbat davomida mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar *tarbiyachining savollari bo‘yicha hamda suratlarga qarab* mazmunan so‘zlab berishga o‘rgatish.

### **Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muhabbat uyg‘otish. Bu muhabbat bilan bolalarni tabiatni avaylashga, asrashga, ehtiyotkorlik munosabatida bo‘lishga o‘rgatish.

“Ona yerimizni asraymiz” nomli ta’limiy o‘yin orqali bolalarni tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani buzmaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, o‘t-o‘lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, qushlarga ozor bermaslik, suvga axlat tashlamaslik, olov yoqmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo‘q bo‘lib ketishi haqida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** Hikoya asosida rasmlar, “Ona yerimizni asraymiz” nomli ko‘rgazmasi, “Ona yer” mavzusida maqollar mazmuni asosida rasmlar.

### **Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

1. Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga ona yerimizning qadri, uni asrash kerakligi haqida gapirib suhbatni boshlaydi. So‘ngra Ibrohim Rahimning “Ona yer” hikoyasini o‘qib beradi.

O‘qib berilgan hikoya asosida savollar berish:

-Anvarjon ayasiga nima deb savol berdi?

-Ayasi Anvarga nima deb javob qaytardi?

Tarbiyachi hikoya asosida savol-javobdan so‘ng bolalarga .“Ona yerimizni asraymiz” nomli ta’limiy o‘yinni taklif etadi.

2. Ta’limiy o‘yin orqali bolalarning insonlar hayotida tabiatning ahamiyati, atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligi (masalan, tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, o‘t-o‘lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, qushlarga ozor bermaslik, suvga axlat tashlamaslik, olov yoqmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo‘q bo‘lib ketishi) haqidagi tushunchalari mustahkamlanadi.

3. Jismoniy daqiqa

4. Bolalarning o‘yin bo‘yicha fikrlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism** “Ona yer” mavzusida maqollar aytish.

**Alohida e’tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealari bo‘yicha suhbat va munozaralarda faol ishtirok etishga undash; bolalarning mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to‘liq javob berish; o‘rtoqlarining aytayotgan javoblariga e’tibor berish malakasini takomillashtirish.

“Ona yerimizni asraymiz” nomli ta'limiy o‘yin ko‘rgazmasi



**Oy:May**

**Mavzu: Asboblari va anjomlar**

**1-hafta. Men va mening uyim. Xotira kuni**

**Mavzu: "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" suhbat**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga Xotira va Qadrlash kuni haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Intellectual-bilish malakalari**

Bolalarning "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" bayram sifatida nishonlanadigan kun ekani haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** Xotira va Qadrlash kuni eng muqaddas kun hisoblanishi, kimdir qarindoshlari qabrini ziyorat qilishlari, kimdir nuroniy

ota-onasini, buvi, buvalaridan xabar olishi, ularning ko'nglini ko'tarishi, chunki bu kun qadrlash kuni ekanligi haqida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar: "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" mavzusidagi rasm. Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

- 1."9-may- Xotira va Qadrlash kuni" mavzusidagi suratni ko'rib chiqish.
2. Surat mazmuni asosida savol- javob o'tkazish
- 3.Bolalarda "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" mavzusidagi bolalar hikoyalarini tinglash va rag'batlantirish.

Bolalar *tarbiyachining savollari bo'yicha yoki suratlarga qarab* "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" mavzusida hikoya tuzadilar.

5.Jismoniy daqiqa

**Qo'shimcha qism:** she'r aytish

**Alohida e'tibor qaratiladi:** So'zlayotganlarida so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish.

**Oy:May**

**Mavzu: Asboblar va anjomlar**

**2-hafta.** Mebel. Milliy hunarmandchilik

**Mavzu: O'zbek milliy kulolchilik san'ati bilan tanishtirish**

**Maqsad:**

**"Nutq va til":**

Bolalarga o'zbek milliy kulolchilik san'ati haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

So'zlayotganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarning o'zbek milliy kulolchilik san'ati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** o'zbek milliy kulolchilik san'atiga qiziqish, faxrlanish g'islarini tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** "O'zbek milliy kulolchilik san'ati" mavzusidagi rasm. Kulolchilik buyumlaridan namunalar, kulolchilik charxi surati.

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga o'zbek milliy kulolchilik san'ati haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

- 1."O'zbek milliy kulolchilik san'ati" mavzusidagi suratni ko'rib chiqish.
2. Surat mazmuni asosida savol- javob o'tkazish
- 3.Bolalarda "O'zbek milliy kulolchilik san'ati" mavzusidagi bolalar hikoyalarini tinglash va rag'batlantirish.

Болалар тарбиячининг саволлари бўйича ёки суратларга қараб “Ўзбек миллий кулолчилик санъати” мавзусида ҳикоя тузадилар.

5.Жисмоний дақиқа

**Қўшимча қисм:**Обид Расул. “Бор кулол амаким” шеъри.

шеър айтиш

**Алоҳида эътибор қаратилади:** Сўзлаётганларида сўзларни грамматик жиҳатдан тўғри тузиш. Болаларни шеърни ифодали айтишларига эътибор қаратиш.

### ***Бор кулол амаким***

Обид Расул

Bordir kulol amakim Nomlari usta hakim Loy pishib erta-kech Erinishni bilmas hyech, O‘ymakorlarga taqlid, har naqshida nozik did, Yangicha san'at talab, Qo‘ndirib gul, silliqlab Olov xumdon ichida Yal-yal gulxan ichida Oqizib ter, yuzda nur Ishlaydi dilda g‘urur	U yasagan gul tuvak, Sopol lagan, osh tovoq Ko‘zasi chinnilardek Oyna misol yarqirar Bu-o‘tmish san'at meros, Bobolarga bo‘lib xos Unga berib naqsh-sayqal Etdi bugun mukammal U yasagan har idish Xizmatdadir yozu-qish.
---	--

**Оу:Мау**

**Мавзу: Asboblar va anjomlar**

**3-hafta. Milliy naqshlar**

**Мавзу: “Kashtachilik” kasbi haqida suhbat**

**Мақсад:**

**“Nutq va til”:**

Bolalarga o‘zbek milliy kashtachilik san'ati haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Intellektual-bilish malakalari**

Bolalarning o‘zbek milliy kashtachilik san'ati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Ishlash uchun kinga nima kerak ta'limiy o‘yini orqali mehnat qurollarini nomlari vazifalari haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish:** o‘zbek milliy kashtachilik san'atiga qiziqish, faxrlanish g‘islarini tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** "O‘zbek milliy kashtachilik san'ati " mavzusidagi rasm. Kashtachilik mahsulotlaridan namunalar. Kashtachilik naqsh namunasi.

**Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi bolalarga o‘zbek milliy kashtachilik san’ati haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1."O‘zbek milliy kashtachilik san’ati" mavzusidagi suratni, kashtachilik mahsulotlaridan namunalarni ko‘rib chiqish.

2. Surat mazmuni asosida savol- javob o‘tkazish.

3.Bolalarda “O‘zbek milliy kashtachilik san’ati” mavzusidagi bolalar hikoyalarini tinglash va rag‘batlantirish.

Bolalar *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlarga qarab* “O‘zbek milliy kashtachilik san’ati” mavzusida hikoya tuzadilar.

5.Jismoniy daqiqa

**Qo‘shimcha qism:** “Ishlash uchun kimga nima kerak” ta’limiy o‘yin  
**Alohida e’tibor qaratiladi:** So‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish. Bolalarni she’rni ifodali aytishlariga e’tibor qaratish.

**Oy:May**

**Mavzu: Asboblar va anjomlar**

**4-hafta. Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblar**

**Mavzu: Xo‘jalik mehnat qurollari bilan tanishtirish. (Ketmon, belkurak, chelak, tesha )**

**Mavzu: T.Ilhomovning “Adib-betartib” hikoyasini o‘qib berish**

**Maqsad:**

**“Nutq va til”:**

“Adib-betartib” hikoyasini o‘qib berish orqali bolalarning monologik nutqini rivojlantirish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma’noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, mantiqiy izchillikda hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar *tarbiyachining savollari bo‘yicha hamda suratlarga qarab* mazmunan so‘zlab berishga o‘rgatish.

**Hissiyotlar va ularni boshqarish**

Bolalar e’tiborini yaxshi odatlarning afzal tomonlariga qaratish

Mehnat qurollari, o‘yinchoqlarini joy-joyiga yig‘ishtirib qo‘yish, xonasini ozoda va tartibli saqlashga o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** Hikoya asosida rasmlar.

**Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:**

1.Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga xonani ozoda va tartibli saqlash, tartibli, tartibsiz bolalar, ularning farqi haqida gapirib suhbatni boshlaydi. So‘ngra T.Ilhomovning “Adib-betartib” hikoyasini o‘qib beradi.

O‘qib berilgan hikoya asosida savollar berish:

- Nima uchun *tartibli, sarishtali* bo‘lish - yaxshi odat hisoblanadi?  
- Adib duradgorlik asboblarini tartib bilan, joy-joyiga qo‘yar ekanmi? Adibning otasi o‘g‘liga nima deb nasihat qiladi? Adib otasining nasihatini qulog‘iga olibdimi? Bog‘bonning uyida Adibning ishi unumli bo‘ldimi? Kelinglar, birgalikda Adibning ish qilayotgandagi holatini kuzatamiz:

Birinchi marta, Adib nimani yo‘qotib qo‘ydi? Iskanani qaerdan topdi?

Ikkinchi marta, u qaysi asbobni yo‘qotib qo‘ydi? Arrani qaerdan topdi?

Uchinchi marta, -u qaysi asbobni yo‘qotib qo‘ydi? Randani qaerdan topdi?

Adibning ishi nima sababdan unumli bo‘lmaganligini, angladingizmi? Fikringizni kengroq ifodalang.

O‘ylab ko‘ring-chi, Adib betartibli tufayli yana nimani yo‘qotdi?(...) O‘zining va otaxonning qimmatli vaqtini yo‘qotdi. Xalqimiz "O‘tgan vaqt yo‘qolgan oltindan qimmat"; "Vaqtning ketdi, naqding ketdi"deydi. Agar odam bolaligidan tartibga, saranjom-sarishtalikka o‘rgansa, kimmatli vaqtini behuda qidir-qidirlar bilan yo‘qotmaydi. Vaqtdan unumli foydalanadi. Ko‘p va kerakli ishlar qilishga ulguradi.

## **2.Jismoniy daqiqa**

**Qo‘shimcha qism** Mehnat qurollari haqida topishmoqlar aytish.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealari bo‘yicha suhbat va munozaralarda faol ishtirok etishga undash; bolalarning mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to‘liq javob berish; o‘rtoqlarining aytayotgan javoblariga e‘tibor berish malakasini takomillashtirish.

## **Foydalangan adabiyotlar**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. F.R.Qodirova va boshqalar. Nutq rivojlantirish metodikasi. T.: 2019.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish. T.:2018
4. S.Raximova va boshqalar. Atrof –olam bilan tanishtirish metodikasi. T.: 2019.
- 5.O.Xasanboeva “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”. Toshkent. T.: 2006 y.

## MUNDARIJA

№	MAVZULAR	BET
1.	Kirish	3
2.	Mavzu: Mening Vatanim mavzusida suhbat	13
3.	Mavzu: Mening ona shahrim mavzusida suhbat	14
4.	Mavzu: Mening oilam mavzusida suhbat	15
5.	Mavzu: Men va mening do‘stlarim mavzusida suhbat	16
6.	Mavzu: Shodmon Otabek. “Qushcha” hikoyasini o‘qib berish va mavzu asosida suhbatlashish	17
7.	Mavzu: Oltin kuz-ne'matlari surati ustida suhbat	19
8.	Mavzu: Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) “Non” hikoyasini hikoya kilib berish	20
9.	Mavzu: “Paxta – milliy boyligimiz” surati ustida suhbat	21
10.	Mavzu:Havo transporti haqida suhbat	22
11.	Mavzu:Yo‘l harakati qoidalari bilan tanishtirish	23
12.	Mavzu: “Tez yordam xizmati”nomli surat ustida suhbat	24
13.	Mavzu: “Otam, onamga yordamchiman” nomli surat ustida suhbat	25
14.	Mavzu: «8-dekabr Konstitutsiya kuni» mavzusida suhbat	26
15.	Mavzu: Gripp haqida nimalarni bilasiz? mavzusida suhbat	27
16.	Mavzu: Tikuvchi mehnati bilan tanishtirish	28
17.	Mavzu: “Bog‘chamizda qish bayrami” nomli surat ustida suhbat	29
18.	Mavzu: “Qishki o‘yinlar” nomli surat ustida suhbat	30
19.	Mavzu: “14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni” nomli surat ustida suhbat	31
20.	Mavzu: “Qo‘limiz va tishimizni yuvamiz”	32
21.	Mavzu: «Kechiring, oyijon!» hikoyasi	33
22.	Mavzu: «Do‘stlik ulug‘ baxt» qirg‘iz xalq ertagini qayta hikoya qilish	34
23.	Mavzu: «Rostgo‘y bola» koreys xalq ertagini qayta hikoya qilish	35
24.	Mavzu: Alisher Navoiy «Non hidi» rivoyatini qayta hikoya qilish	36
25.	Mavzu: “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini so‘zlab berish	37
26.	Mavzu: “Onamlarning bayrami” suhbat	40
27.	Mavzu: “Sumalak-ko‘klam mo‘jizasi” rivoyatini so‘zlab berish	41
28.	Mavzu: Ijodiy hikoya tuzish. “Navro‘z bayramini qanday o‘tkazdim?”	42
29.	Mavzu: “Qumursqa” o‘zbek xalq ertagini o‘qib berish	43
30.	Mavzu: Gullab-yashnayotgan bahor	45
31.	Mavzu: “Qumursqa” o‘zbek xalq ertagini o‘qib berish	46
32.	Mavzu: “Suv hammaga kerak” mavzusida suhbat	47
33.	Mavzu: Ibrohim Rahimning “Ona yer” hikoyasini o‘qib berish	49
34.	Mavzu: "9-may- Xotira va Qadrlash kuni" suhbat	51
35.	Mavzu:O‘zbek milliy kulolchilik san'ati bilan tanishtirish	52

36.	Mavzu: “Kashtachilik” kasbi haqida suhbat	53
37.	Mavzu: T.Ilhomovning “Adib-betartib” hikoyasini o‘qib berish.	54
38	Foydalanilgan adabiyotlar	56







